

Kuzatuv kengashi faoliyatidan xabardormisiz?

Kengash a'zosi etib saylangan ota-onalarning farzandlari boshqa ta'lim muassasasiga o'tkazilganda yoki bitirib ketganda, kengashning ushbu a'zosi kengash a'zolari qatoridan chiqariladi.

3-bet

Tilimiz — o'zligimiz

Bugun xalqimiz til borasida o'z so'zini aytdi. Davlatimiz, hukumatimiz ham xalqimiz, ona tili-miz tomonida ekaniga shubha qilmayman.

5-bet

Milliy taraqqiyot kafolati

Ayni paytda respublikamizda 1700 dan ortiq fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari, innovatsion ishlanmalar, yosh olimlarning fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari bajarilmoqda.

7-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marfat.uz • 2019-yil 8-may, chorshanba № 35 (9204)

Xalq ziyolilari gazetasi



Geografiya fanidan test savollari

10-bet

9-may — Xotira va qadrlash kuni



Sherali bobo farzandlari ardog'ida

Surxondaryo viloyatida 65 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi farzand-u nevaralari ardog'ida umrguzaronlik qilmoqda. Ularning olti nafari Termiz shahrida yashaydi.

Gulira'no mahallasida istiqomat qilayotgan Sherali bobo Haydarov bugungi tinch, osoyishta hayotimiz uchun kurashgan mard, jasur yurtdoshlarimizdan biri.

Bu yil 94 yoshni qarshi olayotgan otaxon 22 yoshida urushga otlandi. O'shanda 1943-yilning qish fasli edi. Sherali Haydarov va uning safdoshlari Buxoro viloyati Galaosiy qishlog'ida kuzgacha tayyorgarlik ko'rdi. Qurol-aslahalardan foydalanishni o'rgandi. Fashistlar tomonidan ishg'ol qilingan hududlar geografiyasi bilan yaqindan tanishdi.

— Hech esimdan chiqmaydi, — deydi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. — O'sha yili sentyabr oyida goh poyezdda, goh piyoda yurib, Ukrainaning Zaparoye shahriga yetib bordik. Shu yerda bizni urushga kiritdi. Hech ko'z oldimdan ketmaydi front deganlari olov bo'lar ekan. Eh-he, qanday zabardast yigitlar ana shu olovda hayotdan ko'z yumdi. Biz ko'rgan bu kunlar hech kimning boshiga tushmasin. Dunyoda urush bo'lmasin.

Oddiy askar Sherali Haydarovlarning harbiy bataloni Kiyev shahrini fashistlardan ozod etishda jang qilayotganida

yosh jangchi daydi o'q zarbidan hushdan ketdi. Boshidan yarador bo'ldi. Gospitalda juda uzoq davolandi. Shifokorlar kontuziya tashxisi bilan unga mehr berib qarashdi. Urushda ko'rsatgan jasoratlari orden va medallar bilan taqdirlandi. 1945-yil iyul oyida Surxondaryoga — tug'ilib o'sgan qishlog'i Sayrobgga qaytdi.

— Dushmanni Berlingacha quvib borish bir umrlik armon bo'lib qoldi, — deydi Sherali bobo. — Nogiron bo'lib, uyga keldim. Lekin boshqa ko'plab safdoshlarim kabi g'alaba nashidasini tomasdan hayotdan ko'z yumib ketmaganimga shukrona aytardim. Bu g'alabamiz — avlodlarimiz baxti, deb o'ylardim.

2-bet

Urush ko'rgan odamlar

Shunday omon-omon kunlarning qadriga nima uchun yetmaysan? Jahonda urush bo'lmasligi uchun sizlar faqat va faqat yaxshi o'qishlaringiz kerak. Shunda kuchli va dovyurak bo'lasizlar. Hech qanday dushman yurtimiz sarhadini buzishga jur'at etolmaydi...

8-9-bet



Iste'dod kamoloti yo'lida

Termiz shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabida 280 nafar yosh ta'lim-tarbiya olmoqda.

San'at maskanida 11 ta bo'lim mavjud bo'lib, fortepyano, amaliy va tasviriy san'at, an'anaviy xonandalik, xalq cholg'ulari kabi 20 yo'nalishda mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan. 40 nafar malakali pedagog-mutaxassis ko'magida san'at sirlarini puxta o'zlashtirayotgan maktab tarbiyalanuvchilari turli tanlov, festivallarda o'z iste'dodini namoyish etmoqda. Maktab qoshida tashkil etilgan "Surxon sabolari" raqs jamoasi hamda "Nihol" cholg'u orkestri ko'pchilik olqishiga sazovor bo'lmoqda.

O'za surati.

ERTANGI KUNGA MAS'ULIYAT VA JAVOBGARLIK HISSI BILAN YASHASH, XALQIMIZGA SADOQAT BILAN XIZMAT QILISH – OLIY BURCHIMIZ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan yirik loyihalar va avval berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishish maqsadida 6-7-may kunlari Farg'ona viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining viloyatlarga tashrifi chog'ida o'sha hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish, odamlarning hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun alohida-alohida rejalar qilish an'anaga aylandi. Farg'ona viloyatiga tashrif ham shunday bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev 6-may kuni viloyatdagi yirik loyihalar bilan tanishar ekan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan tumanlarga sanoatni olib kirish, bandlikni ta'minlash, xotinqizlar va yoshlar manfaatlarini ro'yobga chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Hududda o'tgan bir yilda erishilgan natijalar chuqur tahlil qilinib, kelasi yilga mo'ljallangan vazifalar muhokama etildi. Dunyo bozoriga chiqish uchun raqobatbardosh bo'lish, sanoat o'rtacha rivojlangan tumanlarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, eng asosiysi, viloyat iqtisodiyotiga sarmoya, texnologiya va innovatsiyalarni jalb etish bo'yicha tegishli yo'nalishtirish belgilandi.

Tashrifning ikkinchi kuni Farg'ona shahrida viloyat faollari, vazirlik va idoralar rahbarlari, nuroniylar, tadbirkorlar ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'zining avvalida yig'ilganlarni, butun xalqimizni Ramazon oyi hamda yaqinlashib kelayotgan Xotira va qadrlash kuni bilan tabrikhladi.

2018-yili Farg'ona viloyatida sanoat 8 foiz, xizmat ko'rsatish 9 foiz, o'zlashtirilgan investitsiyalar 1,5 barobar o'sgan. Lekin aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot respublika ko'rsatkichidan ancha pastligi, Qo'shstepta, Furqat, Oltiariq, Farg'ona, Yozyovon tumanlarida sanoat rivojlanmagani qayd etildi.

Shu bois viloyatni 2019-2020-yillarda rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati

26 trillion 401 milliard so'mlik 643 ta loyihadan iborat yangi hududiy investitsiya dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur doirasida 2,5 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtiriladi va 31 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi.

Masalan, Beshariq tumanida «Farg'ona Yasin qurilish mollari» korxonasi 200 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, joriy yilda 800 ming tonna va keyingi yildan 1,2 million tonna sement ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Qo'qon shahrida «Indorama» kompaniyasining 70 million dollar to'g'ridan to'g'ri sarmoyasi hisobidan Qo'qon superfosfat zavodi modernizatsiya qilinib, fosforli o'g'it ishlab chiqarish quvvati 100 ming tonnadan 375 ming tonnaga yetkaziladi. Uchko'prik tumanidagi «Shaffof omadli sanoat» korxonasi jami 30 million dollar sarmoya hisobidan avtomobillar uchun yiliga 350 ming dona gaz balloni, 2020-yildan yuk ko'taruvchi elektr karalar, mini-traktorlar va qishloq xo'jaligi texnikasi uchun uskunalar ishlab chiqarish o'zlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga dasturdagi har bir loyihani amalga oshirish bo'yicha tarmoq jadvallarini tasdiqlab, ijrosini ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

Farg'ona viloyatiga investitsiya olib kelish, sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bir yil favqulodda safarbarlik e'lon qilamiz. Ana shunda o'zgarish bo'ladi. Kelasi yil may oyida hokimliklar, barcha vazirliklar qilingan ishlar haqida hisobot beradi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz yig'ilishda aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida o'z biznesini boshlamochi bo'lgan oilalarni aniqlab, ikki-uch oy ichida ularga belgilangan miqdordagi imtiyozli

kreditlarni to'liq ajratish zarurligini ta'kidladi.

Farg'ona — mohir hunarmandlar, usta dehqonlar yurti. Bu yerning ko'pchilik, bog'dorchilik an'analari — tayyor brend. Bundan foydalanib, viloyatda charm va poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, «Charm-attorlik markazi» tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Kelgusi ikki yilda Oltiariq tumanida 3 ming gektar maydonda uzumchilik, Quva tumanida 2 ming gektarda anorchilik, Quvasoy shahrida 2 ming gektar maydonda giloschilik klasterlari tashkil etilishi ma'lum qilindi. Ushbu klasterlar o'zlariga meva yetishtirish bilan birga aholidan ham sotib oladi. Buning uchun xonadonlarga 15 million tup tok, 10 million tup gilos va 5 million tup anor ko'chatlari yetkazib beriladi. Bu ham aholi daromadlarini, ham viloyat eksport salohiyatini oshiradi.

Yaqin yillarda Oltiariq tumanini to'liq uzum yetishtirishga ixtisoslashtirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va Toshkent davlat agrar universiteti olimlarining tavsiyalari asosida bog' va tok qator oralarida bozorbop sabzavotlar yetishtirish rejalashtirilgani ta'kidlandi.

Viloyatda joriy yilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida 45 ta qishloq va 15 ta shahar mahallasida 8 mingta hovli-joy, 327 ta ko'p qavatli uy, yuzlab kilometr yo'llar, ichimlik suv va elektr tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarida 326 milliard so'mlik ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. Natijada 212 ming aholining turmush sharoiti yaxshilandi.

Farg'ona, Qo'qon, Quvasoy va Marg'ilon shaharlarida 14 ta ko'p qavatli arzon uy, 145 ta ko'p qavatli tijorat uylari, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida 252 ta yakka tartibdagi va 54 ta ko'p qavatli arzon uy-joy barpo etildi.

Yig'ilishda yoshlar masalalariga ham e'tibor qaratildi. Viloyatda 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 970 ming bo'lib, ular bilan ishlash masalasi haqida diqqat-e'tibor markazida bo'lishi qayd

etildi. Shuni hisobga olib, yoshlar bilan ishlash bo'yicha «Farg'ona tajribasi»ni yaratish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgani ta'kidlandi.

Joriy yilda 46 ming nafar yoshning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar shakllantirilgan. «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturiga muvofiq, 208 milliard so'm imtiyozli kredit ajratish orqali 867 ta loyihani amalga oshirish va 7 ming ish o'rni tashkil etish belgilandi.

Prezidentimiz beshta muhim tashabbus bo'yicha Farg'ona viloyatida ham muayyan ishlar qilinayotgani, ularning ijrosi har bir hokimlik va vazirlikning asosiy vazifasiga aylanishi kerakligini ta'kidladi.

Beshta muhim tashabbus — yangi siyosatimiz. Ularni amalga oshirish bo'yicha Bo'ka tumani namuna sifatida tanlab olindi. Har bir tuman hokimi beshta tashabbusni joriy etish bo'yicha yil yakunida hisobot beradi. Beshta tashabbus ijrosi doirasidagi hamma ishlar maktab atrofida mujassam bo'lishi kerak. Ulardagi sport zallari, klublar bolalarga berilishi, yoshlarimiz bu yerga kelib sport bilan shug'ullanishi, kitob o'qishi, axborot texnologiyalarini o'rganishi, barkamol bo'lib ulg'ayishi lozim. Iqtisodiyot qanday rivojlansa, beshta tashabbus doirasidagi ishlarga ham shunday e'tibor qaratsak jamiyatimizda muhit o'zgaradi, odamlarimizda hayotga ishonch ortadi. Bu balandparvoz gaplar emas hayotmamonimiz, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan yig'ilishda so'zga chiqqanlar Prezidentimiz boshchiligida barcha sohalarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar hududlar hayotida ham aksini topayotgani, bundan avvalo odamlar rozi bo'layotganini ta'kidladi. Shu bilan birga, ayrim masalalar bo'yicha mavjud muammolar o'rtaga tashlandi. Davlatimiz rahbari ko'tarilgan har bir muammoni joyida hal etish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Shu bilan Prezidentimizning Farg'ona viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Matnazar ELMURODOV,
Mas'udjon SULAYMONOV,
O'ZA maxsus muxbirlari

9-may — Xotira va qadrlash kuni

Sherali bobo farzandlari ardog'ida

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Ona qishlog'imga yorug' yuz bilan qaytgach, mehnat faoliyatimni boshladim. Ko'p yillar tabelchi bo'ldim. Brigadada yetakchilik qildim. Oila qurdim. Urushdan keyingi ocharchilik kunlarini boshdan o'tkazdim.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bundan 66 yil muqaddam Termiz shahriga ko'chib kelib, viloyat markazida mehnat faoliyatini davom ettirdi. Bolalar bog'chalari, maktab, kinoteatr va uy-joylar qurilishida ishladi. Urushda olgan jarohati aziyat bera boshlagach, qorovul bo'ldi.

— Qorovullikdan keksalik pensiyasiga chiqdim, — deydi Sherali Haydarov. — Avvallari biz urush

qatnashchilariga hozirgidek e'tibor ham, g'amxo'rlik ham yo'q edi. Endilikda mahalla faollari, yoshlar, davlat xizmatchilari, shifokorlar kelib hol-ahvol so'rab turibdi. Sovg'a-salomlar ulashmoqda. Prezidentimiz har yili moddiy va ma'naviy rag'batlantirmoqda. Bularning barchasi yoshimizga yosh qo'shib, o'zimizni tetik, bardam his etishimizga ko'maklashmoqda. Har kuni tongda yurtimizga tinchlik, baraka tilab, duo qilamiz.

Pir-u badavlat tabarruk otaxon Ikkinchi jahon urushidan so'ng tinmay mehnat qildi. Uch o'g'il, uch qizni tarbiyalab, kamolga yetkazdi. Biroq hali ham tetik, sog'lom. Ayni paytda o'ttizga yaqin nevara, 34 chevaraning suyukli bobosi. Farzandlari, nevara-chevaralari ardog'ida tinch, osuda va farovon hayot kechirmoqda.

Biz Gulira'no mahallasida otaxon yashayotgan uyga borganimizda Termiz shahridagi 12-umumta'lim maktabining bir guruh o'quvchilari Sherali Haydarovdan xabar olib, 9-may — Xotira va qadrlash kuni oldidan tabriklash uchun kelgan ekan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi ularga askarlik davridagi ko'rgan-bilganlari va urushdan keyingi tiklanish yillari bilan bog'liq xotiralarini so'zlab berayotgan edi.

— Otaxon mahallamizning faxri, — deydi 12-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shoir Yangiboyeva. — Bu xonadon bizga juda yaqin bo'lib qolgan. Yoshlarimiz boboning gurgunlariga juda qiziqadi. Bayramlar arafasida o'quvchilarimiz bilan kelib, hol-ahvol so'raymiz. Maslahatlariga quloq tutamiz. Bu uchrashuvlar o'g'il-qizlarimizda Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy qadriyatlarimizga hurmat hissiini kuchaytirishga, ularni tinch-osuda va obod hayotning qadriga yetishga undayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV,
O'ZA muxbiri

Kuzatuv kengashi faoliyatidan xabardormisiz?

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 5-sentabrda "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, umumta'lim muassasalarida korporativ boshqaruv va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shaffoflikni oshirish maqsadida ota-onalar, sobiq bitiruvchilar, homiylik va boshqa jamoatchilik vakillaridan iborat kuzatuv kengashlari tashkil etildi. Mazkur kengashlar Xalq ta'limi vaziri tomonidan 2018-yil 26-dekabrda

tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizom" asosida faoliyat ko'rsatadi. Unga ko'ra, kengash a'zolari maktab faoliyati, direktor ishini nazorat qilish, qolaversa, homiylik mablag'larining to'g'ri sarflanayotganini ham kuzatish huquqiga ega. Xo'sh, kuzatuv kengashi avvalgi vasiylik kengashidan nimasi bilan farqlanadi? Quyida har ikki kengash o'rtasidagi o'nta farqni e'tiboringizga havola etamiz.

Maktab muhiti

№	Vasiylik kengashi (2012-yil 3-iyulda ro'yxatdan o'tkazilib, (ro'yxat raqami 2377), 2019-yil 12-yanvardan bekor qilingan)	Kuzatuv kengashi (ro'yxat raqami 3118, 2019-yil 11-yanvar)
1.	<p>Kengashning maqsadlari quyidagilardan iborat:</p> <p>ta'lim muassasasida o'quvchi(tarbiyalanuvchi)larning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishi uchun qulay sog'lom muhitni yaratish;</p> <p>ta'lim muassasasining o'quv va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uning faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;</p> <p>ta'lim muassasasi o'quvchi(tarbiyalanuvchi)larining o'qishi va ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hamda sport tadbirlarida ishtirok etishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilashda ta'lim muassasasi rahbariyati bilan hamkorlik qilish;</p> <p>ta'lim muassasasida darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va takomillashtirishga ko'maklashish.</p>	<p>Kengashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:</p> <p>ta'lim muassasasini rivojlantirish-ning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, hududiy xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan ta'lim muassasasi rahbarini saylash;</p> <p>ta'lim muassasasining maqsad va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash;</p> <p>ta'lim muassasasida amalga oshirishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish.</p>
2.	<p>Kengashning asosiy vazifalari:</p> <p>ta'lim-tarbiya ishlarini shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshirishda, shuningdek, o'quvchi-(tarbiyalanuvchi)larning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilashda ta'lim muassasasiga ko'mak va tavsiyalar berish;</p> <p>homiylilik mablag'lari hisobidan ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, uning binosini ta'mirlash va hududini obodonlashtirishga ko'maklashish;</p> <p>homiylilik mablag'larini ta'lim muassasasida ijodkor va iqtidorli o'quvchilar(fan olimpiadasi, sport musobaqalari, turli ko'rik-tanlovlar g'oliblari)ni rag'batlantirish ishlariga yo'naltirish bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyatiga tavsiyalar berish;</p> <p>o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) bilan turli ommaviy tadbirlar, sayohatlar, uchrashuvlar, sport-sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda ta'lim muassasasi rahbariyatiga ko'maklashish.</p>	<p>Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan ta'lim muassasasi rahbarini saylash, shuningdek, belgilangan tartibda uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;</p> <p>ta'lim muassasasini rivojlantirish-ning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;</p> <p>ta'lim muassasasi rahbarining muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budjet, budjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan tinglash;</p> <p>ta'lim muassasasi rahbarining taqdimnomasi bo'yicha yillik moliyaviy rejalari, ko'rsatilayotgan pulli xizmatlar narxi va muassasa mulkidan foydalanish uchun ijara haqi miqdorini, jumladan, auksiondagi boshlang'ich narxni ko'rib chiqish va tasdiqlash;</p> <p>o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'tatish;</p> <p>o'quvchilar va ularning ota-onalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, ta'lim muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to'g'risida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish;</p> <p>ta'lim muassasasining faoliyatini tashkil etishga taalluqli boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish.</p>
3.	<p>Kengash yetti kishidan kam bo'lgan toq sondan iborat tarkibda o'quvchi-tarbiyalanuvchi)larning ota-onalari (qonuniy vakillari), ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan faxriylar bilan o'tkaziladigan umumiy yig'ilishda barcha a'zolarining teng huquqliligi asosida tashkil etiladi.</p>	<p>Kengash 7 kishidan kam bo'lgan toq sondan iborat tarkibda tuziladi. Bunda kengash tarkibiga o'quvchilarning ota-onalari orasidan kamida 2 nafar, sobiq bitiruvchilar orasidan 2 nafar va nafaqadagi sobiq pedagoglar orasidan 1 nafar hamda homiylik orasidan 2 nafar a'zo kiritiladi.</p>
4.	<p>Vasiylik kengashi nizomida bu narsa nazarda tutilmagan.</p>	<p>Vasiylik kengashi nizomida bu narsa nazarda tutilmagan.</p>
5.	<p>Vasiylik kengashi nizomida bunday norma mavjud emas.</p>	<p>Vasiylik kengashi nizomida bunday norma mavjud emas.</p>
6.	<p>Vasiylik kengashiga bunday vakolat berilmagan.</p>	<p>Vasiylik kengashiga bunday vakolat berilmagan, aksincha, kengash a'zolari maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun homiylik yordami ko'rsatish (ota-onalardan pul yig'ini undirish)ga tashabbuskor bo'lgan.</p>
7.	<p>Vasiylik kengashiga bunday vakolat berilmagan, aksincha, kengash a'zolari maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun homiylik yordami ko'rsatish (ota-onalardan pul yig'ini undirish)ga tashabbuskor bo'lgan.</p>	<p>Vasiylik kengashiga bunday vakolat berilmagan, aksincha, kengash a'zolari maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun homiylik yordami ko'rsatish (ota-onalardan pul yig'ini undirish)ga tashabbuskor bo'lgan.</p>
8.	<p>Ota-onalar ta'lim muassasasida pul mablag'lari yig'ilishi holatlari haqida og'zaki yoki yozma ravishda bevosita kengashga murojaat qilishi mumkin. Bunday holat yuz bergan taqdirda, kengash tomonidan xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining rahbar xodimlari ishtirokida muhokama etiladi hamda aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko'riladi.</p>	<p>Ota-onalar ta'lim muassasasida pul mablag'lari yig'ilishi holatlari haqida og'zaki yoki yozma ravishda bevosita kengashga murojaat qilishi mumkin. Bunday holat yuz bergan taqdirda, kengash tomonidan xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining rahbar xodimlari ishtirokida muhokama etiladi hamda aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko'riladi.</p>
9.	<p>Vasiylik kengashi faoliyatida bunday norma kiritilmagan.</p>	<p>Vasiylik kengashi faoliyatida bunday norma kiritilmagan.</p>
10.	<p>Vasiylik kengashi nizomida bunday norma kiritilmagan.</p>	<p>Vasiylik kengashi nizomida bunday norma kiritilmagan.</p>

Ajdodlar xotirasi muqaddas va barhayot

Xalqimiz azaldan Vatanni bosqinchilardan himoya qilgan, uning erkinligi, mustaqilligi va daxlsizligi uchun kurashgan qahramonlarini e'zozlab keladi. Respublika bolalar kutubxonasida "Ajdodlarni xotirlash — muqaddas qadriyat" shiori ostida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbir ham ushbu an'ananing amaliy isboti bo'ldi.

Xalq ta'limi vazirligi va Respublika bolalar kutubxonasi tashabbusi bilan o'tkazilgan tadbirdan ko'zlangan maqsad Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari

va front ortida mehnat qilgan faxriylar, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar ko'rsatgan matonat, jasurlik va mardlikning ahamiyatini yoshlarga tushuntirish, targ'ib qilishdir.

— Beshafqat urushda halok bo'lgan yarim milliondan ziyod vatandoshlarimiz xotirasini hech qachon yodimizdan chiqarmaymiz. Notinchlik yillarida front hududlaridan ko'chirilgan bir millionga yaqin oila va bolalarni qabul qilib, so'nggi bir burda nonini ular bilan baham ko'rgan xalqimiz o'zining naqadar olijanobligini, mehr-muruvvatini, yuksak ma'naviyatini

yaqqol namoyon etgan, — deydi kutubxona direktori Doniyor O'rolov.

Tadbir davomida barcha mehmonlarga V.Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademika litseyi o'quvchilaridan iborat orkestr jamoasining chiqishlari manzur bo'lgan bo'lsa, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Ivan Balabay maktablardan taklif etilgan harbiy vatanparvarlik to'garagi a'zolariga olovli jangohlardan qolgan xotiralarini so'zlab berdi.

Shahnoza
ABDURASHIDOVA,
O'ZJOKU talabasi

Kitobxonlikka yana bir da'vat

Yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbusning ahamiyati ta'lim muassasalarida yoshlarga keng tushuntirilmoqda.

Uchtepa tumanidagi 116-maktabda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha "Bolaga kitob bering!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyev, Erkin Malik, "Hilol nashr" nashriyoti bosh muharriri E.Haydarov ishtirokida o'tgan tadbir maktab o'quvchilari uchun taassurotlarga boy bo'ldi. Sevimli yozuvchilari bilan uchrashuvda bolalar o'z she'r-u qo'shiqlaridan ijro etdilar.

O'quvchilarimizning adabiyotga ixlosini oshirishda bunday uchrashuvlarning o'rni beqiyos. Ko'nglida kitobga muhabbat uyg'ongan bola qaysi sohada bo'lmasin o'z o'rnini topadi. Tadbirni tashkil etishda, o'quvchilarning badiiy chiqishlarini tayyorlashda



M.Turotova, E.Shirinova, M.Hasanov, M.Sa'dullayeva, N.Hidayatova, N.Turdiyeva kabi o'qituvchilarning mehnatini alohida e'tirof etish joiz.

"Hilol nashr" nashriyoti bosh muharriri Erkinjon Haydarov maktab kutubxonasiga ta'lim-tarbiyaga oid kitoblar sovg'a qildi. Xudoyberdi To'xtaboyev va Erkin Malik ham o'quvchilarga o'z kitoblaridan berishdi.

N.USMONOVA,
shu maktab direktori

Muzeydan boy taassurotlar

Poytaxtimizdagi 273-maktabning 5-«A» sinf rahbari Muqaddas Qoraboyeva o'quvchilar bilan navbatdagi sayohat-darsni O'zbekiston davlat san'at muzeyi hamda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasida o'tdi.



Dastlab o'quvchilar san'at muzeyida xalq amaliy san'ati namunalari, hunarmandchilik buyumlari, sopol va chinni idishlar, turli zeb-u ziynat va taqinchoqlarni tomosha qildilar. Shuningdek, O'zbekistonda Qozog'iston yili deb e'lon qilinishi munosabati bilan tashkil etilgan ko'rgazmadan joy olgan Qozog'iston Respublikasi ramzi hisoblangan "Oltin odam" o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. "Oltin odam"ni tilla bezaklar bilan bezatilgan kiyimda, tilla o'qlar, qor qoplonlari, arxarlar, otlar, qushlar ko'rinishidagi oltin plastinalar bilan bezatilgan konus shaklidagi bosh kiyimda ko'rish mumkin.

O'quvchilar ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasida Birinchi Prezidentimiz hayoti, jo'shqin ish faoliyati bilan bog'liq fotosuratlar bilan tanishishdi. Fotolavhalardan Islom Karimovning bolaligi, davlat ishlaridagi faoliyati, oilasi davrasida tushgan suratlar aks etgan. Birinchi Prezidentimizning bolalarga mehr ulashayotgan suratini nafaqat o'quvchilar, balki majmuani aylanib yurgan chet ellik mehmonlar ham hayajon bilan tomosha qildilar. Bolalar har ikki muzeydan katta taassurotlar bilan qaytdilar.

MUXBIRIMIZ

To'garaklarda qiziqarli mashg'ulotlar

Farg'ona tumanidagi 55-maktabda "Ertamiz egalari istiqbolli yo'lida" mavzusida seminar o'tkazildi. Unda "Yosh havaskorlar", "Yosh rassomlar", "Yosh adabiyotshunoslari", "Yosh tarjimonlar" ijodiy to'garaklari mashg'ulot o'tkazildi.

Bundan tashqari, shaxmat, voleybol, kurash to'garaklarining ko'rgazmali chiqishlari bo'ldi. "Mohir qo'llar", "Pazandalik", "Biser" to'garagi a'zolarining ijodiy ishlaridan iborat ko'rgazma seminar ishtirokchilarini befarq

qoldirmadi. Kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish bo'yicha informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi M.Sariqova "Excel"ning ajoyib imkoniyatlari" mavzusida qiziqarli mashg'ulot o'tdi.

Seminarda maktabning sobiq o'quvchisi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti Gulnoza Jo'rayeva maktab kutubxonasiga badiiy adabiyotlar jamlanmasini hadya etdi. O'quvchi-yoshlar tomonidan "Kitob odoblar xazinasi" mavzusida badiiy-musiqiy kompozitsiya namoyish etildi.

Shuhrab ZIYODOV,
"Ma'rifat" muxbiri

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Tobim qochib, shifoxonaga tushib qoldim. Ishga ham borolmadim. Shu qisqa vaqtda ishim men uchun qanchalar qadrli ekanini his qildim. Farzandlarimdek bo'lib qolgan o'quvchilarim ko'z oldimdan ketmadi. Hech kim kasal bo'lmasin ekan, ayniqsa, o'qituvchi.

Mahbubaxon
ABDULBOQIYEVA

Nima uchun yuqori sinf o'qituvchisi metod kunida kelmasa rahbar e'tiroz bildirmaydi? Ammo boshlang'ich sinf o'qituvchilari shanba kuni ham maktabga kelishi shart. Yo'qsa, bir kunlik maoshi qirg'illadi. Nega yuqori sinfga o'tgan o'quvchida kamchilik bo'lsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi aybdor? Fan olimpiadalarida o'rin olgan o'quvchilar esa o'zlariniki...

Mahliyo QUDRATOVA

Darsliklar bo'yicha XTV tomonidan o'qituvchilardan turli taklif va fikrlar so'raldi. Qanchadan qancha o'qituvchilar darsliklardagi xatolar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Zarur o'rinlarda tanqid qilindi, mualliflar ogohlantirildi. Qani, bu gal ko'raylik-chi, o'qituvchilarning fikri inobatga olinarmikan?

O'QITUVCHI

Darslarni-ku a'lo darajada o'tamiz. Ammo uyuq kech borishimiz biroq muammo bo'lmoqda. 2-smenadan chiqqanda hatto transport ham bo'lishi qiyin. Buning ustiga kechki payt o'quvchilarga javobgarlik ham zimmamizda. Uydagi bolalar ham qiyinalib qolishyapti.

D.QOSIMOVA

Bir necha yil litseyda dars berdim. Kollej, litseylar yopilgach, maktabga ishga o'tdim. Borgan yilim birinchi sinflarga darsga kirdim. Juda qiyinaldim. Yosh bolalar bilan ishlashning o'zi bo'lmas ekan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mehnatiga tan berdim.

Hilola RASHIDOVA

Ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchilar uchun kanallar ko'payib ketgan. Bu guruhlarda o'qituvchilar bir-biridan mavzu bo'yicha konspektlar, dars ishlanmalari, senariylar so'rashadi. Xo'sh, tayyor konspekt va dars ishlanmasining nima keragi bor? Axir, o'qituvchi har bir dars uchun turli adabiyotlarni varaqlab, metodlar o'ylab topib, darsga tayyorlik ko'rishi va shu asosida konspekt yozishi kerak emasmi?!

Shahnoza A'ZAMOVA

Tilimiz — o'zligimiz

Hozir dunyoda 7,5 mlrd atrofida inson yashaydi va ulardan hech birining barmoq izi boshqasikiga o'xshamaydi. Shuncha xalq yaqin-yaqin 7-8 ming tilda gaplashgan. Hozir bu raqam 6 mingga qadar qisqargan. Bularning ham 90 foizi yo'qolib ketish arafasida. Chunki har ikki haftada bitta til o'lib boryapti, deya xabar berishadi olimlar. Dunyoda yana shunday tillar borki, ularda faqat er-u xotinagina gaplashadi.

Ulardan keyin til ham egasiz qoladi. Tilning egasi orqasidan tilning o'zi ham tarixga aylanadi. Shu bilan birga, buning tamomila teskarisi ham bo'lishi mumkin: el yashayveradi, lekin o'z tilini qo'yib o'zga tilda gaplashadi. Bunday holda ham til o'ladi. Xalqning jismi yashayveradi, lekin nomi o'chadi, so'zi o'ladi, xotirasi unutiladi. Chunki har bir xalqning tili uning o'zgalardan ajratib turadigan bosh xususiyati, belgisi hisoblanadi. Qizig'i shundaki, insonning tana a'zosi hisoblanmish tilning uchidagi iz ham xuddi barmoqdagi iz kabi boshqalarnikiga o'xshamas ekan. Qarang, shu yerning o'zida, ya'ni tana a'zosi bo'lmish tilning uchida muloqot vositasi — tilga aloqadorlik yashirangan. Yo'qsa, nega o'zga tillarda so'zlasha-so'zlasha, so'ng o'z ona tilida gaplasha boshlaganida xuddi olis safardan Vatanga qaytgan baxtiro'ni kishidek sezasan o'zingni! Demak, ona tili bu millatning botiniy qiyofasi, uning ma'naviy pasportidir.

Shu ma'noda 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi millatimizning qaytadan oyoqqa turishiga teng tarixiy, siyosiy, ma'naviy va psixologik hodisa edi. Bu hodisa necha zamonlardan beri tilimizni tiklash, qadrlash va hayotga qaytarish yo'lidagi ulkan odimlardan biri bo'lib tarixga kirdi. Mustaqillikning asosiy shartlaridan biri ham, shubhasiz, til mustaqilligidir. Mazkur tarixiy qadam bilan biz o'z ona tilimizni sekin-asta yo'qolib ketish xavfidan saqlab qoldik. Ammo ko'p o'tmay qarshimizda boshqa bir muammo paydo bo'ldi: dunyoni o'rgimchak to'ridek qamrab borayotgan globalizm kayfiyati bugungi kunda siyosiy-iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lmish AQSh, Xitoy va Rossiya kabi mamlakatlarning tillari mavqeyini keskin oshirib yubordi. Natijada dunyo miqyosida, ayniqsa, ingliz va xitoy tillariga qiziqish o'zining haddi a'losiga yetib bormoqda. Xususan, ona O'zbekistonimizning shahar va qishloqlarida joylashgan minglab tashkilot, do'kon, dorixonalar peshtoqlarida o'zbekchadan ko'ra ko'proq inglizcha yozuvlarga ko'zimiz tusha boshladi. Ilgari ruschalari ko'p edi. To'g'ri, til bilish yaxshi. Til bilish bu — uyg'onish. Hatto Rennessans davrida ham odamlarning kamida ikki-uch tilni bilishi odatiy hol sanalgan. Lekin o'zga tilni bilish o'z ona tilini unutish hisobiga bo'lmasligi lozim. Aks holda, o'zlikni boy berib qo'yish mumkin.

Ona tilimizni qanday sevamiz, muhabbatimizni qay yo'sin izhor qilamiz? Tilimizni qanday yuksaltirish, ulug'lash va dunyoga yoyish mumkin?.. Buning eng sodda va eng ta'sirchan yo'li — ona tilimizda gaplashish, gaplashish va yana gapla-

shishdir! Ona tilni tuqqan onani sevgandek sevish bilan, ona tilda so'zlash, eshitish va yozish bilan unga xizmat qilish mumkin. Kinningki tili qaysi millat tilida chiqsa, u o'sha millatga mansub bo'ladi. Tanining oq yo'qora bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Uning kimligini til hal qiladi. Chunki til orqali millatning ruhi kirib boradi. Sen o'z ona tilini bilasanmi, demak, xalqingni bilasan. Ammo bugun zamonlar o'zgardi. Bugun biz internet davrida yashaymiz. Demak, ona tilimizning qo'llanilishini zamonaning talablariga hamqadam olib borishimiz, chunonchi, o'zbek tilida internetdan to'liq foydalanish imkonlarini (bu soha bilan bog'liq barcha dasturlarni) ayni paytda, dunyoning jamiki faol tillaridan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan esa ana o'sha faol tillarga tarjima qiladigan elektron tizimlarni, lug'atlarni imkon qadar tezlik bilan yaratishimiz kerak. Shuningdek, hamma sohalardagi ahamiyatga molik asarlarning o'zbekcha tarjimalariga ega bo'lishimiz shart. Yo'qsa, yoshlarimiz ongi va qalbini boy berib qo'yishimiz hech gapmas. Chunki boylar hayotga real qaraydi. Ularni quruq va dalar bilan "olib o'tirib" bo'lmaydi. Ularga hayotlari davomida asqotadigan real takliflar berish kerak.

Bundan 10 yillar burun dala hovlimning eshik-romlarini almashtirdim va "Parkent" bozoriga tushib, suvoqchi usta gaplashib keldim. Usta xakasiyalik ekan. Ismi — Volodya. "Nega bunday?" desam, bizda yoshlarning aksari shunday, dedi. "Xakas tilini bilasanmi?" deb so'radim. "Tushunaman, xolos", deb javob berdi. Til haqida hadeb so'rayverganimdan keyin quyidagilarni bilib oldim: Xakasiyada keksalar udumni, tilni, millatni saqlab qolishga harakat qilishadi. Ya'ni xakas yigit xakas qiziga uylansin va o'z yurtida yashasin, deysin. Yoshlarga shuni maslahat berishadi, kerak bo'lganda, qattiq turib talab qilishadi. Lekin buning uddasidan chiqisholmaydi. Chunki sivilizatsiyaning qudratli bo'roni yoshlarni o'z domida chirpirak qilib aylantirib, Rossiya va dunyo bo'ylab sochib yuborgan. Yoshlar rus tilida gaplashadi, ularning ismlari ruscha (nega tilni, millatni saqlab qolishga urinayotgan kattalar bolalariga bunday ism qo'yishadi, bu qiziq...), ovrupacha, udumlar ham shunga yarasha. Xakasiyada yoshlar kam. Keksalar birin-sirin hayotdan ko'z yumar ekan, ovullar huvillab boryapti. Katta avlod o'zlari bilan birga xakas elining tilini, urf-odatlarini, butun borlig'ini olib ketishyapti. Izdosh yo'q, hisobi. Mana, tirik o'mak — Volodya! Uni ham ota-onasi yonlarida olib qolish va xakas qiziga uylantirish uchun qo'ldan kelgan hamma ishni qilishgan. Lekin natija shuki, Volodya Toshkentga qochib kelib, o'zbek qiziga uylangan, shu yerda muqim yashab qolgan, ikki farzandi bor. Ularning ismlari ham ruscha. Uyda rus tilida gaplashishadi. Holbuki, ularning hammasi turkiy, tomirlarida turkiylarning qoni oqadi!..

Bilasizmi, mana shu xakas yigitining qismati — xakas elining qismati, bugunidir. Agar o'z tilimizga mahkam bo'lmasak,

mana shu "qismat", mana shu "bugun" ertaga bizning ham qismatimizga, bugunimizga, temurlarimiz esa volodyalarga aylanishi mumkin. Agar o'zimizga mahkam bo'lmasak, sekin-asta millatga tegishli boshqa qiyofalar ham qo'ldan ketadi... Agar o'zimizga mahkam bo'lmasak...

Tilning millat taqdirini hal qiluvchi omil ekanini bugun o'zini ziyoliman deganning deyarli hammasi biladi. Lekin uning taqdiriga befarq qarab kelayotganlarning orasida o'sha ziyolilarning, ya'ni o'zimizning borligimiz g'oyat achinarli.

Ko'cha-ko'yarlardagi e'lon-u reklamalar, do'kon-u har xil markazlar, park nomlari-yu xizmat shoxobchalarining nomlari ajnabiy tillarda yozilayotgani, shaharning ayrim go'shalarida o'zimizni xuddi xorijga tushib qolgandek his qilayotganimiz, televideniye va radiomizdan ko'pincha shevada gapirayotganimiz, "Atamashunoslik" qo'mitasining tugatilgani-yu rasmiy hujjatlarimiz katta foizi hamon rus tilida olib borilayotgani haqiqat. Bu haqda o'zini bilgan, xalqini, tilini jonu dilidan sevgan vatandoshlarimiz doim u yoki bu shaklda hayqirib kelyaptilar. Lekin qani ularni eshitadigan bir azamat! Biz ziyolilarimiz so'zlarini eshitmaydigan, eshitsak ham pinak buzmaydigan hollarga tushib qoldikmi!.. Yo'qsa, ijtimoiy tarmoqlarda necha yillardan beri ayni shu masala bot-bot ko'tarilib, muhokama qilinmoqda. Lekin tayinli javob yo'q... Javob jadidlarda bor edi. Vatan, xalq, til, milliy ozodlik kabi masalalarda hayotini tikkan ulug' ma'rifatparvar bobomiz Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani qahramonlaridan biri Miryoqubning dunyoqarashini tubdan o'zgartirib yuborgan uchrashuv poyezdda yuz beradi. Miryoqub "Hali ham o'g'limni o'ris maktabiga bera-man deb qo'ydim", deydi jadid Sharofiddin Xo'jayevga. Jadid unga: "Bu fikringiz xato. Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hissi o'stirib, o'z millatini tanitgandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin... Undan keyin Germaniya, Fransiya, Angliya mamlakatlari, hatto dunyoning narigi chekkasidagi Amriqoga yuborib o'qitish kerak..." deb javob beradiki, bu javobdagi haq gap hozirgi kunimizga kelibgina ro'yobga chiqayotganini o'ylasak, Cho'lpon ta'lim-tarbiya bobida xalqimizga sog'ingan orzular, oz emas-ko'p emas, naqd bir asrga kechikkanini alam bilan tan olishga to'g'ri keladi. Lekin shunda ham ulug' jadid orzusini bir tomonlama bajarmoqdami. Avval milliy maktab deyapti u, milliy maktabda milliy hisni o'stirish haqida gapirmoqda. Hayotda esa yo milliy mahdudlikka yoki haddidan oshgan kosmopolitizmga berilish hollari ko'p uchrarmoqda bizda. Yoki faqat milliy maktablar va milliy tarbiyani chetlab o'tib, faqat xorijiy tili maktablardan boshlamoqdami. Har ikki yo'l ham halokatli. Bizga kerak bo'lgan yo'l romanda ko'tarilgan muammoning romanda ko'rsatilgan yechimida ekanida: jahoniy tafakkurni milliy his ustida barpo etishdadir. Milliy ruh (his) chetlab o'tilar ekan, tilimizni

hech qachon himoya qilolmaymiz. Zero, tilning himoyachisi, avvalo, o'z ona tilni mukammal bilishi, uning tanglayi ona tilida ko'tarilgan bo'lishi shart! Buning boshqa chorasi ham, yo'li ham yo'q. Ana, kunikecha bir necha o'zbekistonlik rusiyazbon ziyolilarning "Vesti.uz" saytida e'lon qilingan rus tiliga xalqaro muloqot qilish maqomini berish to'g'risidagi murojaati bu borada Cho'lponning naqadar haqli ekanini yana bir karra tasdiqlab turibdi. Chunki ota-bobosining tili qolib, o'zga tilni yoqlab chiqqanlarning aksarining tanglayi rus tilida ko'tarilgandir.

Bugun xalqimiz til borasida o'z so'zini aytdi. Davlatimiz, hukumatimiz ham xalqimiz, ona tilimiz tomonida ekaniga shubha qilmayman. Endi navbat tilimiz obro'sini ko'tarish uchun real tadbirni ko'rishda qoldi.

Bas, shunday ekan, tilimizning, avvalo, o'z yurtimizdagi mavqeyini oshirish uchun qat'iy va aniq chora-tadbirlar olishimiz shart. Buning uchun:

birinchidan, O'zbekistonda tug'ilib yashayotgan har qanday vatandoshning, millatidan qat'i nazar, davlat tili bo'lgan o'zbek tilini bilishi majburiy Bosh Qomusimizda qat'iy belgilab qo'yilishi;

ikkinchidan, yurtimizda faoliyat olib borayotgan hamma tashkilotlar davlat tilida ish yuritishi (buning uchun olimlarimiz har bir sohaning atamalarini ishlab chiqishi lozim);

uchinchidan, ishga kirayotgan har qanday talabgor o'zbek tilida savodli gapirish va yozish malakasi bo'yicha imtihon topshirishi (buning ham darajalari bo'lsin, albatta. Chunki o'zga millat vakili uchun birdaniga til bilimining yuksak darajasini talab qilish to'g'ri bo'lmaydi);

to'rtinchidan, zudlik bilan o'zbek internet tili (va hamma sohalar bo'yicha dasturlar) ishlab chiqilishi kerak. Toki shakllanib kelayotgan yosh avlod dunyo bilan aynan ona tilimiz orqali muloqotga kirisha olsun.

Bugun xalqimiz til borasida o'z so'zini aytdi. Davlatimiz, hukumatimiz ham xalqimiz, ona tilimiz tomonida ekaniga shubha qilmayman. Endi navbat tilimiz obro'sini ko'tarish uchun real tadbirni ko'rishda qoldi.

Bas, shunday ekan, tilimizning, avvalo, o'z yurtimizdagi mavqeyini oshirish uchun qat'iy va aniq chora-tadbirlar olishimiz shart.

Bular qilinishi kerak bo'lgan ishlarning dastlabkilari, eng zarurlari, xolos. Zero, oldinda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar nihoyatda ko'p.

Aytilganlardan xulosa shuki, davlat tilimiz bo'lmish o'zbek tiliga to'g'ri va adolati munosabatni shakllantirish uchun unga har tomonlama e'tiborni kuchaytirishimiz, bu e'tibor boshqa tillarga qarshi emas, balki ona tilimizni rivojlantirishga qaratilishiga erishmog'imiz, uni, avvalo, zamonaviy ilfan tiliga aylantirishimiz kerak. Shundagina o'zgal ham tilimizni hurmat qilib tan oladi, o'rganadi. Zero, til bu o'zligimizdir. Tildan mahrum bo'lish o'zlikdan, o'zlikdan mahrum bo'lish esa, or-u nomusdan — borliqdan mahrum bo'lshdir. Axir, Olloh xalqlarni, ularning urf-odatlarini yillarini rang-barang qilib yaratdi. Biz ana shu ilohiy turfaqlik bitta parchasi sifatida uni saqlab qolish va ke-lajak avlodlarga yetkazishga mas'ulmiz.

Tajriba

PIRLSga tayyorgarlik

Bugun har bir fan o'qituvchisi xalqaro baholash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'quvchilarni PISA va PIRLS baholash imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifa. PISA nima? Bu 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini belgilash.

PIRLS — 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash. TIMSS — bu 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida 4-sinf o'quvchilarini xalqaro baholash tizimi PIRLS haqi-

da ko'proq ma'lumot o'rganish maqsadida www.tdi.uz sayti va t.me/milliymarkaz kanaliga ulandim. Matnini o'qish va tushunishga o'quvchilarni biz 1-sinfdan o'rgatamiz. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Men bu yo'nalishda bir qancha ishlarni reja asosida boshladim. O'qish darslarida internetdan kichik hikoya va ertaklarni olib, 2 xil variantda o'quvchilarga uya vazifa qilib berdim. Ertasi kuni hikoya haqida savol-javob o'tkazdim. "Hikoya nima haqida?", "Qahramonlar kim?", "Siz hikoyadan nimani o'rgandigiz?", "Sizga qaysi qahramon yoqdi?" kabi savollar bilan ularni imtihon qildim.

PIRLS TESTLARI (mezon asosida o'zim tuzgan savollar):

"Yomon otliq jazosi" (Abdulla Avloniy). "Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota va onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushib, yaqalashib, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: "— Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu", desa "Men yeganim yo'q, mushuk yegondir", der edi. Bora-bora otasini pulini ham o'g'urlab oladigon bo'ldi. Otasi bilib, "O'g'lim, pulni kim oldi?" desa, "Onam olgandur", deb onasini o'g'ri qilur erdi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lib yotdi. Qosim kelib, sekin tangani olib, og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab o'lmoqchi bo'lg'onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Bolalar, ko'rdingizmi, yomonning yomonligi o'z boshig'a yetdi.

1. Hikoya kim haqida?
A) Farzand B) Qosim D) Ovqat E) Yomonlik
2. Siz yolg'on gapirganmisiz?
A) Ha B) Yo'q D) Ba'zan E) Bir-iki marta
3. Qosim otasiga taomni nima yedi deb aytdi?
A) Mushuk B) It D) O'zi E) Hech narsa demadi
4. Qosim nimani yutib yubordi?
A) Pulni B) Tangani D) Nonni E) Ovqatni

Matn asosida tuzilgan test savollari orqali o'quvchining matnini tushunish darajasi va fikrlash va o'qish malakasi baholanadi.

Mahbubaxon MURTAZOYEVA,
Rishton tumanidagi
34-maktab o'qituvchisi



"Bingo"ning yangicha talqini

Nafaqat har bir mashg'ulot, balki darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar o'quvchi ongida yorqin taassurot qoldiradi. Bayramona dasturlar uyushtirish, bellashuvlar tashkil qilish orqali bolalarga chet tilidagi she'r-qo'shiq, maqollarni o'rgatish samara beradi.

Shu bois ingliz tili to'garaklarida o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, odatda "Bingo" o'yinini yangicha talqinda o'tkazamiz. Bunda bir guruh a'zolari imo-ishora va qo'l-oyoq harakatlari bilan biror buyum yoki jonzotni tasvirlab berdi. Raqib guruh esa to'g'ri javobni topishi kerak. O'yinda sahna ko'rinishlari orqali ertak qahramonlari, joy nomlari ham tasvirlanishi mumkin. O'yinning ikkinchi shartida guruhlarga shu hayvon yoki predmet bilan bog'liq she'r yodlash ta'kidlanadi. Masalan:

"It has whiskers and rhymes with hat.
It lives in the sea and rhymes with park.
It eats flies and mosquitoes, and rhymes with log.
It slashes around and rhymes with rake"...

Uchinchi shart: guruhdagi o'quvchilar bilimi test yoki savollar yordamida sinaladi. Misol uchun quyidagi gaplarni o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiring:

1. Hello, Mary!
2. I am fine, thank you.
3. Nice to meet you Shamsiddin.
4. I am ten years old.
5. Nice to meet you Mary, how are you?
6. I am twelve years old, and you Mary?
7. Hello Mark, this is my friend Shamsiddin.
8. How old are you Shamsiddin?

Xulosa qilib aytganda, har bir o'tkaziladigan mashg'ulot hamda tadbir bolalar uchun o'zga xos ahamiyat kasb etishi lozim. Zavq bilan olingan bilim o'quvchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

G.TURDIYEVA,
Buxoro tumanidagi 53-IDUMI o'qituvchisi

Tovuq nega shamollab goldi?

Biologiya fanidan 6-sinfda o'quvchilar "Gul — o'simliklarning generativ ko'payish organi" mavzusi orqali gullar bilan to'liq tanishib bo'lgach, olingan bilimni mustahkamlash uchun rasmiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda o'quvchilarga gul qismlari tasvirlangan biror surat beriladi hamda ulardan rasnga qarab, gulli qismlarga ajratish va ular haqida ma'lumot berish so'raladi. 1-rasm:



Javob: Rasmda gullning qismlari tasvirlangan bo'lib, ular o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Rasmdagi oyoq qismi (gul kosachabargi) gul qo'rg'onining tashqi qavatini hisoblanadi. Tanasi (gul urug'chisi) gullning asosiy qismi bo'lib, unda urug'lanishdan so'ng meva hosil bo'ladi. Qo'llari (gul bandi) gullning asosiy qismlarini o'simlik tanasiga birlashtirish vazifasini bajaradi. Boshi (gul toj bargi) gul qo'rg'onining ichki qavatini hisoblanadi va turfa rangli bo'ladi. Ko'zlari (changlari) changdon ichida yetiladigan urug'chini urug'lantiradigan sperm hujayralaridan tashkil topadi. Shoxlari esa (changchisi) 2 qismdan: changchi iplari va changdondan iborat, changdonda changlar yetiladi.


7-sinf uchun "Ko'k kaptning tashqi tuzilishi" mavzusining oxirida quyidagi topshiriqdan foydalanish mumkin:

O'rdak, g'oz, tovuq qishning sovuq kunlarida kim ko'p suvda turish musobaqasini o'tkazdi.

Ertasi kuni tovuq shamollab yotib qolibdi. Buni eshitgan o'rdak va g'oz uni ko'rgani boribdi. Tovuq o'rtoqlariga hech nima bo'lmaganini ko'rib hayron bo'lib, sababini so'rabdi. Aytinch, o'quvchilar, o'rdak va g'oz nima uchun shamollamadi-yu, aynan tovuq shamollab qolgan?

Javob: Sababi, g'oz va o'rdakda dumg'aza bezi bo'lib, undan yog' ajraladi. Ikki parranda bu yog'ni tumshug'i bilan siqib olib, patlariga surtib turadi. Shu sababli patlariga suv yuqmaydi. Tovuqda esa bunday bez bo'lmaydi. Shu bois, uning patlari sovuq kunda suvni tanasiga o'tkazgan va tovuq shamollagan.

10-sinflar uchun. Turli kapalaklar (moviy kapalak, tok kapalagi, sariq kapalak, karam kapalagi) tunda kim ko'p nektar yig'ish o'yinini o'tkazibdi. Barchasi oz-ozdan nektar yig'ib kelibdi. Tungi kapalak esa na nektar keltiribdi, na o'zi kelibdi. Buning sababi nima deb o'ylaysiz?



Javob: Tungi kapalakning nektar ham olib kelmagani, o'zi ham kelmaganining sababi — bu kapalaklar og'uldan nektar yig'adi. Shu bois, bu turdagi kapalaklar tunda lampochkalarga o'zini urib, nobud bo'ladi. Demak, tunda oq guldandan nektar yig'ish ularning yashashi uchun kerak bo'lsa, ayrim hollarda bu holat o'limga olib kelishi mumkin.

Hilola AZIZOVA,
Sergeli tumanidagi 285-maktabning
biologiya fani o'qituvchisi



Milliy taraqqiyot kafolati

Ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Hozir vazirlik huzurida 17 ta ilmiy-texnik kengash tashkil etilgan. Har bir kengash tarkibida olimlar va tor doiradagi soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhi faoliyat yuritadi.

Ayni paytda ilmiy-tadqiqot dasturlarini e'lon qilish bo'yicha ham qator yangiliklar amalga oshirilmoqda. Avvalgilardan farqli ravishda Innovatsion rivojlanish vazirligi Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilishi 2019–2021-yillarga mo'ljallangan amaliy va dolzarb tematik tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalar bo'yicha tanlovlarni xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda davriy ravishda bosqichma-bosqich shakllantirib, e'lon qilishni yo'lga qo'ydi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi huquq va majburiyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligining huquqiy vorisi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot, ta'lim va boshqa muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari va loyihalarining yagona buyurtmachisi hisoblanadi.

Sobiq agentlik yilda faqat bir marta fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini e'lon qilgan. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirliklar tasarrufiga kirmaydigan ilmiy va tajriba-konstruktorlik muassasalari, tadqiqotlar o'tkazish uchun imkoniyati va ilmiy salohiyati mavjud tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan, ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lgan talabgorlar o'z sohasi va yo'nalishi bo'yicha barcha turdagi ilmiy-tadqiqot loyihalarini topshirishi mumkin edi. Bunga fundamental, amaliy tadqiqot dasturlari, innovatsion ishlanmalar, yosh olimlarning fundamental va amaliy tadqiqotlari, qo'shma xalqaro ilmiy-texnikaviy dasturlar kirar edi. Endilikda esa vazirlik huzurida tashkil etilgan ilmiy-texnik kengashlar ushbu dasturlar bo'yicha moliyalashtiriladigan barcha turdagi ilmiy-texnik loyihalarni baholash, ekspertiza qilish va monitoringdan o'tkazish bilan bog'liq barcha ishlarini amalga oshiradi.

Ayni paytda respublikamizda 1700 dan ortiq fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari, innovatsion ishlanmalar, yosh olimlarning fundamental va

ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari bajarilmoqda. Bundan tashqari, 2018-yildan faoliyat boshlagan qo'shma chet el grant loyihalari ham mavjud.

Dastlabki o'tkazilgan monitoring jarayonida sobiq agentlik tomonidan ilmiy-texnik loyihalar va ularni amalga oshirish bilan bog'liq ma'lumotlar bazasi shakllantirilmaganligi, mavjud ma'lumotlar yetarli emasligi va bir-biriga zidligi tufayli juda ko'plab ma'lumotlarni bevosita ilmiy-texnik kengash a'zolari, loyiha rahbarlari va ijrochi tashkilotlar bilan birgalikda ishlab, qayta tiklash bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan edi. Olib borilgan tahlillar ilmiy loyihalarining bajarilishi bilan bog'liq monitoring ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, bu borada ilmiy-texnik kengashlar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, monitoring mezon va natijalarini rasmiylashtirish bilan bog'liq tegishli hujjatlarni ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, vazirlikda mazkur yo'nalish bo'yicha me'yoriy huquqiy baza tuzilgan va yangilandi va bugungi kunda bu yo'nalishda tizimli ravishda ish olib borilmoqda.

Monitoring o'tkazilishidan avval loyihani tatbiq etayotgan tashkilotlarga savolnomalar taqdim etildi. Savolnomada loyiha ijrochilarining ish dasturlari, loyihada ko'zda tutilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va loyiha kalendar rejasiga mosligi, loyiha bo'yicha olingan muhim ilmiy natijalar va ularning iqtisodiyot tarmoqlarida joriy etilishi istiqbollari, nashr etilgan monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqola va patentlar taqdim etilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, loyiha bajarilishi jarayonidagi kamchiliklar, loyihaning olib borilishiga xalal berayotgan sabab va muammolar, loyiha bajarilayotgan ilmiy laboratoriya va moddiy-texnik bazaning ahvoli, qo'shimcha zamonaviy ilmiy uskunalari, sarflanuvchi zarur material va butlovchi qismlar ta'minoti haqida ma'lumotlar so'ralgan.

Monitoring jarayonida ilg'or ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borish uchun yangi turdagi hamda zamonaviy yuqori texnologik uskunalari bilan jihozlangan ilmiy laboratoriyalar tashkil etish bo'yicha takliflar, ilmiy va texnologik uskunalardan foydalanishni o'rganish uchun yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish uchun yosh olimlardan nomzodlar berilishi, loyiha natijalari bilan innovatsion yarmarkalarda ishtirok etish, tuzilgan shartnomalar va ularning ijrosi, ish bajarilayotgan tashkilot tomonidan zarur sharoitlar yaratilganligi kabi masalalar batafsil ko'rsatilishi belgilangan edi.

Tahlil natijalariga ko'ra, loyihalar respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishiga alohida hissa qo'shmoqda. Olimlarimiz ilmiy yangiliklari bilan xalqaro maydonga yanada ko'proq va geografik jihatdan kengroq chiqmoqda. Lekin bajarilayotgan hamma loyihalarining samaradorligi talab darajasida yoki yuqori deb bo'lmaydi. Chunki ilmiy jamoalar asosan tezis, ilmiy maqola, monografiya nashr qilish bilan cheklangan. Grantlar doirasida o'tkazilayotgan ilmiy anjuman-

Bugungi kunda 19 ta fan yo'nalishi bo'yicha ilmiy-texnik loyihalar tanlovi e'lon qilindi. Asosiy tanlovlardan yana biri bu — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida o'z xarajatlarini o'zi qoplash asosida moliyalashtirish uchun ustuvor innovatsion, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va «startap» loyihalari tanlovidir.

larning natijalarini amaliyotga joriy etish ishlarini jonlantirish maqsadga muvofiq ko'rindi. Ularning respublikada ilm-fan taraqqiyoti tendensiyasini belgilashdagi o'rinni ko'rsatib berish, loyiha natijalarini chet elning nufuzli jurnallari — Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda nashr ettirish, loyiha natijalarini joriy qilishga erishish kerakligi aniqlandi.

Bugungi kunda 19 ta fan yo'nalishi bo'yicha ilmiy-texnik loyihalar tanlovi e'lon qilindi. Asosiy tanlovlardan yana biri bu — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida o'z xarajatlarini o'zi qoplash asosida moliyalashtirish uchun ustuvor innovatsion, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va «startap» loyihalari tanlovidir.

Avvalgilardan farqli o'laroq tanlovlarda xususiy institutlar ham ishtirok etishi mumkin. Taqdim etilgan loyihalar tanlov talablariga qat'iy rioya qilinganligi, loyiha materiallarining ishonchiligi va haqqoniyligi, ko'chirmachilikka (plagiat) yo'l qo'yilmaganligi bo'yicha dastlabki texnik ekspertizadan o'tkaziladi. Yana bir muhim jihat — davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy-texnik tadqiqotlar natijalari ular yakunlanganidan so'ng to'liq tijoratlashtirilishi shartligi belgilab qo'yildi. Taqdim etiladigan loyihalar tashkilot Ilmiy (ilmiy-texnik) kengashlari tomonidan loyiha mavzusi, uning bajarilishi va undan kutilayotgan natijalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tarmoq va sohalarini rivojlantirish uchun zarurligi nuqtayi nazaridan atroficha muhokama qilinishi va tavsiya etilganligi haqida qaror qabul qilinishi talab etiladi.

Taqdim etilgan loyihalardagi ma'lumotlarning haqiqiyliги va ishonchiligi hamda tanlov g'oliblari tomonidan ilmiy-texnik loyihalarining natijadorligi, tijoratlashtirish darajasi, tanlov dasturlari vazifalarida belgilangan, kutilayotgan natijalarning to'la va o'z vaqtida sifatli bajarilishiga ilmiy loyiha rahbarlari, ilmiy loyihani bajaruvchi tashkilot

rahbarlari va tegishli yuqori tashkilotlar mas'ul xodimlari javobgar hisoblanadi. Tanlovning dastlabki bosqichlarida tanlovga bitta loyiha kelib tushgan taqdirda tanlov o'tkazilmasligi belgilab qo'yilgan edi. Endilikda esa loyiha mavzusining dolzarbligi, uning ilmiy salohiyati, loyihadan kutilayotgan natijaning muhimligi va tijoratlashtirilishiga asos borligini e'tiborga olib, ekspertiza jarayoniga beriladi va loyiha ilmiy rahbari bilan vazir, tegishli fan yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-texnik kengash raisi, ilmiy kotibi, tatbiq etiladigan soha, tarmoq vakili ishtirokida muzokaralar olib boriladi, natijalari bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi. Loyiha ijobiy xulosaga ega bo'lgan taqdirda uni moliyalashtirish tavsiya etiladi.

Loyihani amalga oshirishning to'liq muddati davomida loyiha rahbari tashkilot bilan mehnat munosabatlarida bo'lishi kerak. Biroq mehnat shartnomasiga asosan ishni masofadan turib bajarish mumkin emas.

Loyiha rahbari arizani topshirish muddatidan avval loyiha mavzusi bo'yicha «Fan tarmog'i» (Web of Science Core Collection) yoki Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan hamda retsenziyalanadigan mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda 2014-yilning 1-yanvaridan boshlab chop etilgan har bir yo'nalish uchun alohida belgilangan miqdordagi ishlariga ega bo'lishi haqidagi talab ham yangilikdir. Bu mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarini xalqaro miyosga olib chiqishga undashi bilan ahamiyatli.

Ilmiy loyihani taqdim etishning majburiy shartlarida loyiha rahbari tomonidan ilmiy jamoaning majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan. Unda o'zining ilmiy izlanishlari natijalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, jamiyatning noyob mulkiga aylantirish, ularni «Fan tarmog'i» (Web of Science Core Collection) yoki Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilishi kerak. Loyihani amaliyotga tatbiq etish jarayonida retsenziyalanadigan mahalliy «Fan tarmog'i» yoki «Skopus» ma'lumotlar bazasida indekslangan hamda boshqa xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilishi talab etiladi. Shuningdek, respublikaning turli hududlaridagi muassasalar bilan o'zaro integratsiyani ta'minlash, u yerdagi ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan 40 yoshgacha bo'lgan yosh olimlar va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Akademik harakatchanlik» yo'nalishida malaka va tajribasini oshirish uchun kamida bir nafar yosh olim yoki tadqiqotchilarni loyihani bajaruvchi jamoa tarkibiga kiritilishi kerakligi belgilandi. Har bir e'lon qilingan mavzu bo'yicha bir nechtadan loyihalar qabul qilindi. Taqdim etilgan loyihalar Ilmiy-texnik kengashlar tomonidan ekspertizadan o'tkazilmoqda. Ilmiy-texnik kengashlar qarori bilan moliyalashtirishga tavsiya etilgan loyihalar vazirlik Hay'ati qaroriga asosan keyingi bosqichlarga tavsiya etiladi.

Naibxon MAMADALIYEVA,
Innovatsion rivojlanish vazirligi
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori

Ayni paytda respublikamizda 1700 dan ortiq fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari, innovatsion ishlanmalar, yosh olimlarning fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari bajarilmoqda. Bundan tashqari, 2018-yildan faoliyat boshlagan qo'shma chet el grant loyihalari ham mavjud.

“Sharaf lentasi” aksiyasi davom etmoqda

“Ajodlarni xotirlash — muqaddas qadriyat” shiori ostida tashkil etilayotgan dekada doirasidagi “Sharaf lentasi” ni ulashish aksiyasi Namanganda ham o'tkazildi.

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti hamda

Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi tomonidan tashkil etilgan tadbirga Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Abdulalom ota Rahmonov va Sayfuddin ota Nuriddinovlar taklif etildi.

Tinchligimiz va bugungi yorug' kunlarimiz uchun jon fido qilgan vatandoshlarimiz, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajodlarimiz xotirasini yod etish, shuningdek,

yoshlar ma'naviy tarbiyasiga inson qadri uning xotirasini yod etish va sharaflash bilan ulug' ekanini singdirish maqsadiga qaratilgan aksiyada harbiy orkestrning Vatanni, tinchlikni madh etuvchi kuy-qi'oshlari sadosi ostida “Sharaf lentasi” yosh-u keksaga tarqatildi.

Hotam MAMADALIYEV (O'ZA) olgan surat.



Kasaba uyushmasi faxriylar xonadonida

Bugun Farg'ona viloyatida 84 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchisi yashamoqda. Urush faxriylarining ikki nafari — Kenjaboy Egamqulov, Ziyatali Bozorov Buvayda tumanida istiqomat qiladi.

Bayram arafasida Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Buvayda tumani kengashi tumandagi urush va mehnat faxriylari holidan xabar oldi.

Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Adhamjon Umarov boshchiligida bir guruh o'qituvchilar dastlab Kenjaboy ota Egamqulov xonadonida bo'ldi.

Otaxon o'n yettiga kirar-kirmas urushga yuborilgani, Belorussiyani ozod qilishda qatnashgani haqida gapirib berdi. Otaxondan xabar olgani maktab o'quvchilari ham kelib, urush xotiralarini tingladilar.

Asosiy vazifamiz o'quvchilarni vatanparvarlik va ona vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Ezgu maqsadlarimiz ro'yobini mana shu jaji bolalarda ko'rar ekanimiz, eng avvalo, ularga shaxsiy namuna ko'rsatishimiz kerak. Bolalar urush va tinchlik, ozodlik va tutqunlik, qiyinchilik va yo'qchilik kabi tushunchalarni nafaqat kitoblardan, balki

Kenjaboy ota kabi nuroniy keksalarimizdan eshitib bilsa, bugungi kunlarning qadriini yaxshiroq anglaydi, — deydi tumandagi 5-maktab o'qituvchisi Gulchehra Abdullayeva. — Shuning uchun o'quvchilar bilan birga Kenjaboy Egamqulovni yo'qlab keldik. Otaxon bizga urush dahshatlarini, o'zi ko'rgan qiyinchiliklarni, yarador bo'lganida do'stining sadoqati, mehr-u muhabbati tufayli omon qolganini gapirib berdi. Tumanimizda bor-yo'g'i ikki nafar urush faxrisi qolibdi. Biz ulardan ko'proq xotiralarni eshitib, qirg'inbarot urushning insoniyat boshiga solgan dahshatini to'liqroq his qilishga o'rganishimiz kerak. Sababi, ana shunday qiyinchilik va ocharchilik, yomon kunlarni uning guvohidan eshitgan o'quvchilarda bugungi tinch va osuda kunlarimizning qadriga yetish tuyg'usi shakllanadi. Shu yo'li orqali ularda shukronalik hissini tarbiyalaymiz.

Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Buvayda tumani kengashi respublikamizdagi eng yoshi ulug' inson — 124 bahorni qarshilagan Huvaydo momo Umarova, ta'lim va madaniyat sohasida mehnat qilib, bugun keksalik gashtini surayotgan 25 dan ziyod faxriylar xonadonida bo'lib, ularga esdalik sovg'alari topshirdi.

Sharifa MADRAHIMOVA

Esse

Urush ko'rgan odamlar

1

Nabiram yangi chizgan rasmini ko'rsatib maqtandi: — Bobovoy, ko'rib qo'yning! Qanday chizibman, zo'rmi?!

Alanga qoplagan uylar, qurol ko'targan askarlar, oldidan chiqqan narsani toptab borayotgan tanklar, hatto qo'lini qo'tarib, asir tushgan fashist ham tasvirning bir chetidan joy olibdi.

— Bu nimaning rasmi, bolam? — deb so'radim nabiramga sinchkov nigoh qadab. Uning qiyofasida “shuni ham bilmadingizmi?” deganga o'xshash hayronlik aks etdi. Keyin tushuntirmoqchi bo'ldi:

— Urushning surati.
— Sen buni qayerda ko'rganding?
— Ana, xotira kuni oldidan televizorda nuqul urush haqida ko'rsatuv berishyapti...

2

...Maktabda urush haqida kino qo'yildi-yu, boshqa o'yinlar unut bo'ldi. Dars tugab, apil-tapil nonushta qilgandan so'ng maktabimiz yaqinidagi kolxoz idorasi xarobasida yig'ilamiz. Bir guruhimiz “fashist”, ikkinchi guruh “sovet”, bo'yiga yog'och avtomat osilgan, boshda gazetadan yasalgan askar shapkasi, o'yinning nomi “urush-urush”. To'g'ri, har gal kim “fashist” bo'lishi masalasida ancha-muncha tortishuv kelib chiqardi. Negaki, “fashist” bo'lish — o'yin boshidanoq mag'lubiyatni tan olish. Tomonlarning kuchi qanday taqsim bo'lishiga qarabmasdan, albatta, yakunda “fashist” yengilishi shart. O'zimiznikilar mag'lub bo'lishini hech kim istamaydi. Haliyam “topgan-topaloq” bor. Kimdir qo'larini orqasiga qilib, ikki kaftidan birga nimanidir yashiradi. Qaysi guruh sardori yashirilgan narsani sarda, “sovet”ni oladi. Xarobazomni boshga ko'tarib chuyillaymiz:

— Tar-r-r, tar-r-r...
— Bo'ldi, sen o'lding, men birinchi otdim.
— Men ham otgandim-ku.
— Seniki hisobmas, “fashist” hamma vaqt kechikib otadi, kechagi kinoda ko'rmadingmi?
“O'q tekkan” bola osonlikcha yon berishni istamaydi. Shunda o'yinboshi masalaga yechim topib beradi: — O'lding degandan keyin o'ldal! Nima, seningcha, urushda “o'zimiznikilar” yengilishi kerakmi?!

— Mayli, men o'ldim, — deydi ikki tomonlama hujumga uchragan bola o'zini istamaygina yerga tashlab.
— Nima bo'lsa ham “o'zimiznikilar” yengilmasin.
Uning mardligiga tan berib olqishlarga burkaymiz: — Yasha, vatanni sevish mana bunday bo'libdi-da.
— Keyingi o'yinimizda sen, albatta, “sovet”larga qo'shilasan.

O'shanda men ham endigina maktabning ostonasidan hatlagan, nabiram yanglig' urushning siyratidan bexabar, suratiga ishqiboz bola edim...

3

Bir kuni uyiga olib boradigan yo'li biz tanda quragan xarobazor oralab o'tadigan Ro'zi bobo anchagacha o'yinimizni kuzatib turganini sezmay qolibmiz. Bo'lmasa, u paytlar har qanday bola ham muallimning qorasini ko'rsa sichqonning inini ming tangaga ijaraga olardi. Ro'zi bobo esa maktabimizning 4-5-sinfning arifmetikadan dars berib, aksariyatimiz u kishidan saboq olardik. Muallim bizga ortiqcha dakkli berib o'tirardi, xayolchan ko'zlarini mehr bilan tikib:

— Qo'yinglar, bolajonlar, shu o'yinni sira o'ynamanglar. Urush o'yin emas, ilohno nomi o'chsini! Urush olovini yoqqanlarning uyigini kuysin, — dedi.

Keyin bir qo'li bilan dalda bermasa, harakatlanmaydigan ikkinchi qo'lini shalviratib ko'rsatdi.

— Mana shu qo'limni fashistning o'qi olgan. Menku har holda yarador bo'lsam-da, el-yurtga qaytdim. Dushman o'qi yosh umrini xazon qilib, jasadiga begona yurtlarda qolganlar qancha...

O'shanda urushning siyratiga ilk marta Ro'zi boboning yarador qo'li orqali nazar tashladim. Keyin Davron malimni tinimsiz tutib turadigan yo'tal, Buxor domlaning sal hayajonlansa, tortishib qoladigan boshi urush haqidagi tasavvurlarimni kengaytirdi. Ayniqsa, urushning so'nggi kunlarigacha qon kechgan geografiya muallimimiz Muzrob boboning jangoh haqida hikoya qilganda qizishib ketishi sira xotiramdan ko'tarilmaydi. Biror bola dars jarayonida shu muallimning jahlini chiqarishga jur'at etolmas, darsiga kimdir yetarlicha tayyorlanmay kelsa, qurolodoshlari qidirib topguncha naq ikki kun dushman vayron qilgan uy xarobalari ostida qolib kontuziya ortirgan Muzrob boboning jig'ibiyroni chiqardi:

— Shunday omon-omon kunlarning qadriga nima uchun yetmaysan? Jahonda urush bo'lmasligi uchun sizlar faqat va faqat yaxshi o'qishlaringiz kerak. Shunda kuchli va dovyurak bo'lasizlar. Hech qanday dushman yurtimiz sarhadini buzishga jur'at etolmaydi...

4

...O'tgan asrning oltmishinchi yillari, mamlakatda xrushchevcha siyosat mahsuli o'laroq don mahsulotlari taqchilligi yuzaga kelgan. Aholiga un qishloqdagi eng yirik idora — maktabda gramlab taqsimlanardi. Bir kuni sinfdoshlarimdan kimdir makkajo'xori unidan qilingan zog'ora nonni deraza raxida qoldirgan, e'tiborsizlik tufayli non bo'lagi oyoq ostiga tushgan ekan. Navbatdagi darsga kirgan o'qituvchimiz — Salbi momo uvul bo'lgan nonni yerdan olib, puf-puflab changini ketkazdi-da, yosh sizgan ko'ziga surtib:

— Nonni isrof qilishning uvoli yomon. Urush yillari shugina zog'orani topmay ne-ne sizlarday bolalar, ochlikdan sillasi qurigan katta yoshli kishilarning kepak yalab, shishib o'lganini ko'rganman, — dedi...

Oradan yillar o'tib, ustozim qatori maktabda o'qituvchilik qilib yurganimda, matematika fanidan dars beradigan tengdoshim, chinakam kitob muxlisi Oqnamat Bo'tayev urush yillaridagi qishloq hayotidan hikoya etuvchi “Urush odamlari” degan qissani Salbi momoga berib:

— Juda zo'r kitob, shuni o'qing, — dedi. Ertasi kuni Salbi momo kitobni qaytararkan:

— Buni nega menga berdingizlar? Yuragimdagi armonlarni tikilish uchunmi? Axir, bu kitobda mening hayotim yozilgan-ku, — deb ko'zlariga yosh olganida, o'quvchilik yillarim guvohi bo'lgan yuqoridagi bir burda non voqeasini esladim.

5

...G'alabani 30 yilligi nishonlanganda yoshlar yetakchisi Nekboy domla Ravshanovning tashabbusi bilan maktabimiz bog'ida mo'jazzina yodgorlik lavhasi o'rnatilgandi. Unda qishlog'imizdan qirchillama yoshida urushga ketib, omon-eson qaytish nasib etmagan 102 kishining ism-familiyasi qayd etilgandi. Bunga dushman ko'rg'onida za'far bayrog'ini tikib, elga qaytgan oltmishdan ortiq kishini ham qo'shsak, qariyb ikki yuz nafarni tashkil etadi. Front ortidagi og'ir zahmatni yelkasiga olganlarni ham shu ro'yxatga qayd etsak, birgina chekka qishloqdan urush ko'rgan odamlarning soni qanchaga borishini o'zingiz tasavvur qilavering. Bugun ularning aksari oramizda yo'q. Ammo birgina xotiraning o'zi ham urushning siyrati naqadar ayanchli ekanidan bizga yillar davomida yetarlicha saboq berishda davom etaveradi.

Abdunabi ABDIYEV, Mirishkor tumanidagi 22-maktab direktori

O'qituvchining onasi

Onam

Har birimiz uchun onamiz birinchi o'qituvchi, dunyoni ilk tanitgan inson. Dard chekkanimizda shifokor, tun-u kun biz uchun bedor, hayotda o'z o'rnimizni topishimizda tirkak bo'lgan inson. Men ham onamni esga olganimda go'dakdek ko'zimga yosh keladi.

Uni sog'inganimni, qo'msayotganimni his qilaman. Qanday onam bor edi-ya, deb o'kinaman. Mehribonim haqidagi xotiralarni ko'z oldimda jonlana boshlaydi go'yo.

Onam Shahodat Xolmo'minova Shahrisabz tumanidagi “Uychilik” mahallasida dunyoga kelgan. Onamning onasi — Xonoy Xolmo'minova jamoa xo'jaligida brigadir bo'lib ishlagan. Ko'p yillik halol mehnati tufayli xalqning ishonchi va hurmatiga sazovor bo'lgan. Xalq dardi, tashvishini yengillatish maqsadida

Onam viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasida dastlab hamshira, keyinroq bosh hamshira vazifasida ishladi. Faoliyati davomida samarali mehnati tufayli respublikada xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi unvoni bilan taqdirlanadi. Xalqqa nafi tegadigan inson bo'lish bilan birga bizning o'qish va tarbiyamizga juda katta e'tibor qaratardi.

Astronomlar ustози

Salohiddin Nuriddinov yurtimizda astronomiya va astrofizika fanlarining rivojlanishiga samarali hissa qo'shgan olimlardan.

U 1948-yilning 28-noyabrda Toshkent shahrida xizmatida tavallud topdi. Toshkent shahridagi matematika ixtisoslashgan maktabni oltin medal bilan tamomlab, shu yilning o'zidayoq Leningrad davlat universitetining astronomiya bo'limiga o'qishga kirdi. Aspirantura ta'limini ham Leningrad davlat universitetida o'tagan yosh olim asta-sekin nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqladi.

Olimning Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) fizika fakultetida “Astronomiya” kafedrasini tashkil qilishda xizmati katta bo'ldi. Uning sa'y-harakati bilan 2001-yili O'zbekiston Milliy universiteti qoshida “Astrofizika, radio-astronomiya” mutaxassisligi bo'yicha ixtisoslashgan kengash, 2016-yili shu “Astrofizik tadqiqotlar” ilmiy laboratoriyasi tashkil etildi. U shu kunga

yelib-yugurgan. Onam ana shunday fidoyi insonning farzandi edi. Mehridaryo, hojat-baror, saxiy, mehmondaro'st va eng asosiy-si, kechirimli inson edi. Qo'ni-qo'shni, oshna-og'ayni, qarindosh-urug' uchun fidoyi inson bo'lgani sabab hammaning qalbidan chuqur joy olgandi. Ko'chaga chiqishi bilan qo'shnilarimiz u kishidan maslahat va o'git olishga oshiqar edi. Kezi kelganda, onam kelinlarini qizlaridan ham ustun qo'yardi. Eshik taqillatib kelgan insonni mehmon qilmay jo'natmasdi. Kelinlari ham u kishini qaynona emas, ona o'mida ko'rardi.

Onam viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasida dastlab hamshira, keyinroq bosh hamshira vazifasida ishladi. Faoliyati davomida samarali mehnati tufayli respublikada xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi unvoni bilan taqdirlanadi. Xalqqa nafi tegadigan inson bo'lish bilan birga bizning o'qish va tarbiyamizga juda katta e'tibor qaratardi. Otam ikkovi bizni elga foydasi tegadigan, yaxshi inson qilib tarbiyalash uchun vaqtini ayamasdi.

Darslarimizni doim nazorat qilar, maktabda o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishini qoldirishmasdi. Ikkovi ham



ishlagani sababli ba'zan vaqtlari bo'lmay qolardi. Lekin qanday bo'lmasin, ota-onalar majlisiga yetib kelishardi. Bir kuni ota-onam bir-biriga “Ertaga majlisga siz boring, mening ishlarim ko'p”, deb qolishdi. Ikkovlari ham borolmas ekanlar-da, deb o'yladim. Ertasi kuni majlisga bir-biridan bexabar ikkovi ham kelishgan. Ota-onamning o'qituvchilarga hurmati baland edi. Shuning ta'siri bo'libmi pedagogikaga mehr qo'ydim. Mana, 28 yildir-ki, shu sohada faoliyat olib boraman.

To'ng'ich farzand bo'lganim uchun onamning ham oilani, ham ishini qanday eplaganiga guvoh bo'lib o'sdim. Menga bu tabiiy holdek tuyulardi. Ammo o'zim ulg'ayib oila qurgach, angladimki, ikkala tomonni birdek olib borish ayol kishidan katta mahorat, sabr-bardosh talab qilar ekan. Onam ana shunday ayol edi. Bugun besh farzandning hammasi uyli-joyli, jamiyatda o'z o'rnini topgan.

Feruza TO'RAYEVA, O'ZDJTU o'qituvchisi

Fanimiz fidoyilari

nizmlarini o'rgangan. Olim Somon yo'lida yulduzlarning tarqoq to'dalaridan iborat kararlari sistemalarini ustida izlanib, uning yangi turdagi astrofizik obyektlarini kashf qildi. Qo'shaloqlik va karalik mezonlari nazariy ishlab chiqilib, ular qator obyektlar uchun qo'llanildi. U ilk bor galaktikalar atrofidagi yulduzlarning sharsimon to'dalari sistemalarining katalogini tuzdi. Qator sferik sistemalar, ya'ni galaktikalar to'dalari, yulduzlarning sharsimon to'dalari va ularning sistemalari uchun anizotropiya parametri qiymatlarini hisoblab topdi, olingan natijalar tahlili asosida galaktikalar va ularning katta masshtabdagi strukturalarining mavjudga kelish nazariyasi hamda fizikasi muammolarini o'rgandi.

Salohiddin Nuriddinov o'zining ilmiy maktabini yaratishga erishdi. Ushbu maktabning xalqaro miqyosdagi ilmiy natijalari, noyob kashfiyotlari va tadqiq qilayotgan ilmiy muammolari galaktikalar va ularning katta ko'lamdagi tuzilmalarining modellarini hamda ularning mavjudga kelishi, nohiziqi evolyutsiyasi nazariyasini yaratishga qa-



ratilgan. Olim muallifligida 250 dan ortiq ilmiy maqolalar chet el va respublikaning nufuzli jurnallarida chop etildi. Qator yirik natijalari o'quv qo'llanmalar va monografiya ko'rinishida bosib chiqarilgan. Xususan, “Amaliy va umumiy astrofizika” darsligi, “Umumiy astronomiya”, “Somon yo'li fizikasi”, “Galaktika tuzilishi va fizikasi asoslari”, “Galaktikalar fizikasi asoslari” kabi o'quv qo'llanmalar muallifidir.


Olim rahbarligida 2 fan doktori va 10 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlangan bo'lib, hozirgi kunda 2 fan doktori va 2 tadqiqotchi PhD dissertatsiyalarini himoyaga tayyorlamogda. Uning shogirdlari hozirgi vaqtda respublikamizning va xorijning turli oliy o'quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida yuqori samarali faoliyat olib bormogda.

Ikrom TO'JIBOYEV, Chirchiq davlat pedagogika instituti dekani, fizika-matematika fanlari nomzodi

DTM bilan hamkorlikda chop etilmoqda

GEOGRAFIYA

1. Quyidagi chizmadan foydalanib, A nuqtaning geografik koordinatasini aniqlang.



- A) 15°j.k, 45°g'b.u
- B) 15°sh.k, 45°g'b.u
- C) 45°j.k, 15°shq.u
- D) 45°sh.k, 15°g'b.u

2. Atakama cho'lining hosil bo'lishiga asosiy sabab nima?

- A) sovuq Peru oqimi
- B) La-Plata pasttekisligida joylashganligi
- C) iliq oqimlarning yaqinidan o'tganligi
- D) materik chekkasida joylashganligi

3. Yevrosiyo materigiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni belgilang.

1) eng chuqur g'ori bor; 2) eng katta arxipelag shu materikda joylashgan; 3) eng balandda joylashgan chuchuk suvli ko'li bor; 4) eng chuqur darasi bor; 5) eng uzun g'ori bor; 6) eng katta deltasi bor

- A) 1, 6
- B) 2, 5
- C) 3, 4
- D) 3, 6

4. Afrika materigining yozuvsiz xaritasidan foydalanib quyidagilarni aniqlang: agar sayyoh ekvator bo'ylab g'ardan sharqqa tomon 1,2,3-raqamlar yo'nalishida harakat qilsa, u qaysi tabiat zonalarini kesib o'tadi?



- A) 1 — sernam ekvatorial o'rmonlar; 2 — fasliy sernam o'rmonlar; 3 — savannalar va siyrak o'rmonlar
- B) 1 — fasliy sernam o'rmonlar; 2 — savannalar va siyrak o'rmonlar; 3 — qattiq bargli o'rmonlar
- C) 1 — qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar; 2 — sernam ekvatorial nam o'rmonlar; 3 — chalacho'llar
- D) 1 — fasliy sernam o'rmonlar; 2 — sernam ekvatorial o'rmonlar; 3 — savannalar va siyrak o'rmonlar

5. Berilganlardan qaysi milliy bog' UNESCO ro'yxatiga kiritilgan va xalqaro maqom berilgan?

- A) Jau
- B) Parakas
- C) Manu
- D) Podokarpus

6. Tosh ustun tabiat yodgorligi qayerda joylashgan?

- A) Zomin milliy bog'ida
- B) Kitob geologik tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasida
- C) Hisor tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasida
- D) "Oqtov" davlat buyurtma maskanida

7. Toshkent shahrida (geografik koordinatasi 41°sh.k va 69°shq.u) turgan sayyoh soat 12⁰⁰ da Izmir shahrida



(uning geografik koordinatasi 38°24'sh.k va 27°09' shq.u) turgan sayyohga qo'ng'iroq qildi, xuddi shu vaqtda Izmir shahrida soat necha bo'lganini aniqlang?


- A) 9¹²
- B) 14³²
- C) 10⁵⁵
- D) 15⁰⁰

8. Sovuq havo fronti uchun qanday iqlimiy xususiyatlar xos?

1) ob-havoning tez o'zgarishi; 2) haroratning keskin pasayishi; 3) yog'ingarchilikning bo'lmasligi; 4) havo bosimining yuqori bo'lishi; 5) yog'in-sochin bo'lishi; 6) ob-havoning barqarorligi

- A) 1, 2, 5
- B) 1, 3, 4
- C) 2, 4, 6
- D) 2, 3, 6

9. Ushbu diagrammada davlatlarning urbanizatsiya darajasi berilgan. Bu ko'rsatkichlar mos keladigan to'g'ri javob variantini belgilang.



- A) Singapur, Germaniya, Rossiya, Belgiya
- B) Monako, Shveysariya, Daniya, Ispaniya
- C) Andorra, Buyuk Britaniya, Avstriya, Gretsiya
- D) Myanma, Ispaniya, Indoneziya, Fransiya

10. Quyidagi qaysi davlatlar o'rtasida tunnel orqali o'tuvchi tezyurur poyezdlar qatnaydi?

- A) Fransiya, Buyuk Britaniya
- B) Yaponiya, Koreya Res.
- C) Xitoy, Yaponiya
- D) Shvetsiya, Daniya

Abituriyentlar uchun geografiya fanidan qo'shimcha tavsiyalar

Geografiya fanidan bir qancha masala va topshiriqlar mavjud. Masalan, abituriyentlar topografik shartli belgi-

larni bilish, topografik xaritalarda relyefni gorizontallar orqali tasvirlay olish, yo'nalish azimuti va uni aniqlash, nuqtaning geografik kengligini va uzunligini aniqlash, daraja to'ri orqali masofalarni aniqlash, havo harorati va atmosfera bosimini aniqlash, joyning geografik koordinatalarini, soat mintaqalari, mahalliy vaqt va mintaqa vaqtini hisoblash kabi bir qancha topshiriqlarni bajara olishlari kerak.

Shundan kelib chiqib, geografiya fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishga oid quyidagi tavsiyaga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Soat mintaqalari va vaqtni hisoblash

Avvalo, vaqt o'lchovi Yerning aylanishini kuzatishga asoslangan. Shu sababli vaqt o'lchovi Quyosh vaqti, yulduz vaqti va boshqa vaqtlarga ajratiladi. Vaqtni aniqlashda yulduz vaqtidan foydalanish noqulay, chunki u kun bilan tunning almashinish vaqtiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun amalda Quyosh vaqtidan foydalaniladi. Quyosh vaqti Yerning Quyoshga nisbatan harakatiga qarab aniqlanadi.

Yer bir sutka, ya'ni 24 soat davomida o'z o'qi atrofida g'ardan sharqqa tomon bir maratoba to'liq aylanib chiqadi. Yerning o'z o'qi atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt $2\pi = 360^\circ$ ga teng.

360° ni bo'lamiz 24 soatga, ya'ni $360^\circ : 24 = 15^\circ$ ga teng. Demak, Yer o'z o'qi atrofida har 15° harakatlanganda 1 soatga teng bo'ladi. Endi amaliy topshiriqning bajarilishi bilan tanishamiz.

Toshkent shahrida (uning geografik koordinatasi 41° sh.k va 69° shq.u.da joylashgan) ertalab soat 6^{35} ni ko'rsatdi, shu vaqtda 32° sh.k va 134° shq.u.da joylashgan shaharda soat necha bo'lganligini aniqlash kerak bo'lsin:

Bosh meridiandan boshlab har 15° dan meridianlar o'tkazilsa, Toshkent shahrigacha 4^{36} (4 soat-u 36 daq.) daqiqaga teng bo'ladi, Bosh meridiandan 134° shq.u.gacha esa 8^{56} (8 soat-u 56 daq.) teng. Demak, bu shaharlar orasidagi vaqt $8^{56} - 4^{36} = 4^{20}$ daqiqaga teng ekan. Endi Toshkent shahridagi vaqtga 4^{20} daqiqani qo'shamiz, chunki Toshkent shahriining geografik koordinatasi 134° shq.u.dagi shaharga nisbatan Bosh meridianga yaqin joylashgan: $6^{35} + 4^{20} = 10^{55}$.

134° shq.u da soat 10^{55} bo'ladi. **Javob: 10⁵⁵**

Bu topshiriqni yana ham oson va sodda usulda bajarish mumkin; Ya'ni Toshkent shahriining geografik koordinatasidan so'ralgan joyning geografik koordinatasini ayiramidez va topshiriq shartida berilgan soat vaqtiga qo'shamiz; $134^\circ - 69^\circ = 65^\circ : 15^\circ = 4^{20} + 6^{35} = 10^{55}$.

Manba: 7-sinf, 2017-yil, 27, 28, 30-betlar.

Har bir bolaning nigohini eslab qoldim. Ular allaqanday ma'yus, o'ychan, lekin juda yorug'!

Mehrning rangi

yoxud sehrgarning nevaralari

Borib ko'rganlar biladi — Mehribonlik uyida hayot boshqacha. Ota-onasidan ayrilgan yoki ularidan olisda yashayotgan bolalardan iborat katta oilada bizga begona qonuniyatlar hukm suradi. Murg'akligidanoq hayotning beshafqat zarbasiga duch kelgan, shu boisdanmi, ulkan haqiqatlarni erta ilg'agan bolalarning ko'ziga tik qaray olish uchun ham kishiga ko'-o'p sabot kerak...

Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyi direktori Dilbar Suvonovaga qo'ng'iroq qildim. Bormoqchiliginmi, maqsad-muddaomni aytdim.

— Ko'chaga ish bilan chiqqandim. Soat beshlarda uyda... E, uzr, ishxonada bo'laman, — dedi opa.

U kishining chalg'ib "uy" deganicha ham bor. Avvaldan bilganim uchun hazil qildim.

— To'g'ri aytdingiz, aslida birinchi uyingiz shu yer-ku!

Mehribonlik uyi tashkil topganiga to'qson yil bo'ldi. Salkam bir asr. Bu davr mobaynida u qanchalab himoyaga muhtoj bolalarni o'z bag'riga oldi, ulg'aytirib, mustaqil hayot sari yo'lladi. Unda voyaga yetganlar el-u yurtga xizmat qilib, o'zlarini shu Vatanning chin farzandlari ekanligini isbotladilar.

Hozir mazkur dargohda 74 nafar bola tarbiyalanmoqda. Ularning moddiy ta'minotdan kam-ko'sti yo'q, muassasa xodimlari ayrim ota-onalardan ham yaxshiroq mehr ko'rsatishadi. Lekin bolalar mehning "rangi"ni biladi, shuning uchun ham ko'ngli boshqacha mehri istaydi. Ular uchun ota-ona diydori, birgalikdagi hayot orzu va armondur...

Dilbar opa hamroh bo'lib, yo'l-yo'lakay qilingan ishlar, muhim yangiliklar haqida gapirib berdi.

— O'tgan yili xursandlikka to'la bo'ldi. Yaqin yillar ichida shu yerda tarbiyalanib, mustaqil hayotga qadam qo'ygan, yashashga joyi bo'lmagan 46 nafar yigit-qiz Surxondar-yo viloyati hokimligi tomonidan tarjioy bilan ta'minlandi. Endi ular o'zlariga berilgan yerda uy-joy qurib olguncha yashashadi. Shu paytgacha bizda ham, boshqa viloyatlarda ham bunday holat kuzatilmagan.

— Uy qurish ular uchun oson bo'lmasa kerak?

— Albatta, uy qurish oson emas. Lekin ular ish bilan ta'minlandi. Qolaversa, bolalar voyaga yetganda ularga hayotini yo'lga qo'yishi, tadbirkorlik yoki shunga o'xshash ishlarni boshlab olish uchun davlatimiz tomonidan eng kam ish haqining 105 barabari miqdorida mablag' ajratiladi. Bu esa ular uchun uy-joy qurish imkoniyati ham yaratilgan, degani.

— Homiyar ham ko'mak berib turadimi?

— Saxovatli odamlarning boriga shukr! Kunda-kunora katta-kichik sovg'a bilan yo'qib keladiganlar bor. Bu yil ham sunnat, nikoh to'ylarini o'tkazdik. Ayniqsa, shu yaxshi kunlarda homiyar katta yordam ko'rsatishdi.

Dilbar opa to'yarlarda olingan suratlarini ko'rsatarkan, bir surat e'tiborimni tortdi. Kelin-kuyov ikkisi ham Mehribonlik uyida tarbiyalangan ekan. Kollejda o'qib yurganda bir-biriga ko'ngil qo'ygan. Shu yili taqdir yo'llarini bog'labdi. Opa ularning baxtdan sevinib, so'zida davom etadi:

— Boburbek juda aqlli, mehnatkash yigit. Hozir Termiz shahar obodonlashtirish boshqarmasida ishlayapti. Nilufar esa hayoli, sadoqatli, yuzga tik boqmaydigan haqiqiy o'zbek qizi. U shahardagi 23-maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachiy yordamchisi bo'lib faoliyat ko'rsatmoqda. Meni bir narsa quvontiradi: ikkalasi ham bir xil sharoitda

voyaga yetdi. Bir-birini juda yaxshi tushunadi, bir-biriga suyanib, yelkadosh bo'la oladi. Turmushning totuv-tinch bo'lishida buning ahamiyati katta.

Mustaqil hayotga tayyorlash uchun bolalarning fanlarni chuqur o'zlashtirishdan tashqari, hunar o'rganishiga ham jiddiy e'tibor qaratiladi. Jumladan, pazandalik, kulollik, tikuvchilik, sartaroshlik to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan. To'garak a'zolari yasagan buyumlar, tikkan kiyim va kashtalardan esa mo'jaz ko'rgazma ham tashkil qilingan.

Bilim olishga ishtiyoqmand bolalarga tarbiyachilar kechki payt ham saboq berishadi. Tarbiyachi Dilnoza Sattorova bir xonaga qizlarni jamlab biologiya fanidan mashg'ulot o'tsa, Sherzod Suyunov esa bolalarga matematikani o'rgatish bilan band. Aylanib yurib hamshira xonasiga bordik. Sharoitlar bilan tanishib, hamshira Feruza Bekmurodovani savolga tutdim:

— Bolalar ko'p kasal bo'ladimi?

U bir rahbarga, bir menga qarab, shoshib qoldi.

— Yo'q, kasal bo'lmaydi...

— Umuman kasal bo'lmaydimi? Unda siz qiladigan ish yo'q ekan-da?

— A, yo'q, nimadir bezovta qilsa, darrov kelib aytishadi. Har navbatchilik almashganda ularni ko'rikdan ham o'tkazamiz. Mana, daftarga qayd qilib boraman, — deb ish daftarin ko'rsatdi.

Daftar rostdan ham tartib bilan yuritilgan va har kuni direktor tekshirib, imzolab borar ekan. Biz bu sodda hamshiraga rahmat aytib, kichik yoshdagi bolalar jamlangan guruhga o'tdik. Ularning "Onajon" deya Dilbar opaga talpinganini ko'rib, qattiq ta'sirlandim. Direktor bolalarning har birini alohida bag'riga bosib, ayni paytdagi ahvoli, kayfiyati bilan qiziqdi. Men ham bolalar bilan tanishib oldim.

Davra qurib turgan bolalardan eng yoshi kattasi Hojiakbar 4-sinfda o'qiydi. Muhammad Yusufning ellikdan ziyod she'rini yoddan aytib, shoirming umr yo'ldoshi Nazira as-Salomni qoyil qilgan, olqishini olgan. Undan nega aynan Muhammad Yusuf she'rlarini bunchalik yaxshi ko'rishi haqida so'radim. Hojiakbarning javobi esa shunday bo'ldi:

— Vatan haqidagi she'rlari juda yoqadi.

— Nimaga Vatan haqidagisi?

— Chunki Vatanimizni yaxshi ko'raman...

— Vatan nima o'zi?

— Shu... atrofimizdagi hamma narsa Vatan.

— To'g'ri aytasiz, — dedim, — hamma narsa — Vatan. Vatan esa hamma narsamiz. Usiz hech narsasiz bo'lib qolamiz!

Bir burchakda qorachadan kelgan, jussasi ham juda kichik bola qo'lida titilib ketgan kitobni ushlab, imyanibgina jim turardi. Ismi Diyorbek ekan. Bu yil maktabga chiqibdi. Maktabga chiqmasdan avval lotin va kirill alifbosida o'qish-yozishni o'rganib olgan ekan. Qitmirligim tutdi:

— Diyorbek, sinfdoshlaringizni pisand qilmasangiz kerak-a? Siz o'qish-yozishni bilasiz, ular esa yo'q. Bilgan bilan bilimgan teng bo'larmidi!



— Yo'q, — dedi u tortinibgina.

— Nega?

— Kam bilsa ham ular mening oshnalarim-da...

Bola qalbining olijanobligiga tan bermay iloj yo'q! Diyorbekning qo'lidagi kitobni olib ko'rdim. "Uyg'ur xalq ertaklari".

— Kutubxonada yangi kitoblar ko'p-ku! Nega buni o'qiyapsiz?

— Buni meni ko'rgani kelganda onam olib kelgan...

Ko'nglim buzildi. Sezdirmaslikka urinib, savol berishda davom etdim:

— Qaysi ertak yoqdi sizga?

— "Nodon vazir".

— Nimasi yoqdi?

— Podshoh unga ishonadi. U esa podshohni aldaydi. Qiynalib, saroyga arz qilib kelgan odamlarni podshohning oldiga kiritmaydi...

Bu yerdagi bolalar, yuqorida aytganimizdek, haqiqatning ko'ziga juda crta tik qaranidanmi, kichik faylasuflarga aylanib ulguragan. Ayrim kimsalar uzoq umr kechirsa ham haqiqat ko'ziga tik qarash nasib qilmaydi ularga.

Dilbar opa bolalarning yoniga kelguni-mizgacha aytgan edi: "Bu yerda ishlash menga yoqadi. Birinchidan, ta'lim tizimi rivojiga hissa qo'shimg keladi. Ikkinchidan, bu bolalar bilan oila bag'ridagi bolalarning farqi bor. Bularning har biri bir asar. O'tgan yili mehribon onajonimdan ayrilib qoldim. Hech chidolmayman deng. Shunda hovurimni bosish uchun onasi vafot etgan bolalar bilan gaplashdim. Bolalarga bosh bo'ladigan aqlli, ferosatli Shuhratdan so'radim:

— Shuhratjon, onang yo'qligiga qanday chidayсан-a?

U yuzimga qaramay, kulimsirabgina javob qildi:

— E, onajon, juda noshukr ekansiz. Qirq sakkiz yil onangizning bag'rida bo'ldingiz: quchoqladingiz, hidladingiz, oldida yotdingiz, yonida yurdingiz. Men ona kimligini bilmayman. Faqat sizlarning siymongizda ona qanday bo'lishini tasavvur qilaman. Noshukr bo'lmang, onajon.

Shundan so'ng o'zimga o'zim aytdim: "E, Dilbar, sen hech kim emassan, shuncha sinovlardan o'tgan bo'lsang ham hayotini bilmaysan. Bu borada hech nimani bilmaysan..."

Keyin biz Shuhrat bilan ham tanishdik. Xonasiga kirganimizda u Konstitutsiya moddalarini yodlab o'tirardi. Kelajakda huquqshunos bo'lmocchi. Shuhrat fanlarni yaxshi o'zlashtirishdan tashqari, karate bilan shug'ullanib, ko'pgina musobaqalarda g'alabaga erishgan. 2017-yili O'zbekiston chempioni bo'lgan.

Mehribonlik uyining asosiy qahramonlaridan biri — Sergey. U o'n to'rt yoshda. Yurish imkoniyatidan mahrum. Uni hamma "ikkinchi direktor" deb ataydi. "Ikkinchi direktor" bizni ko'rishi bilan Dilbar opaga:

— Onajon, men ham maktabga boray, — dedi.

— Xo'p, borasan, — dedi opa va menga izoh berdi: — Sergey yakka tartibda ta'lim oladi. Ba'zan esa ko'ngli uchun maktabga ham olib borib turamiz. Bir kuni o'qituvchisi yonimga kelib, Sergey "besh" baho talab qilayotganini, ammo bajargan ishi "a'lo"ga tortmasligini aytdi. Sergeyning yoniga borib, o'zini va bir o'rtog'ining daftarin qo'ydim-da: "O'qituvchilar direktorga baho qo'ya olmaydi. O'zingga o'zing baho qo'y. Mana bu o'rtog'ingga ham baho qo'y", dedim. Shunda, bilasizmi, u nima qildi. O'rtog'iga "besh", o'ziga esa "uch" baho qo'ydi. Chunki u o'rtog'i ishini o'zidan ancha yaxshi bajarganini ko'ra oldi va o'z ziyoniga bo'lsa-da adolat qilishga kuch topdi. Keyin bilgan, u qancha "besh" olsam, shuncha tez katta bo'laman, deb o'ylarkan. "Katta bo'lib nima qilasan?" desam, "Opamga uy olib beraman", deydi. Bunday kurashchanlikni ko'rib, odam ba'zida o'zidan uyulib ketadi.

Bolalar xonasidan uzoqlasharkanmiz, ortimizdan bir bola yugurib chiqdi va ostonada to'xtab, opani chaqirdi:

— Dilbar ona!.. Yana qachon gaplashtirassiz?!

Direktor qaysidir kunni aytdi. Biz yo'lda davom etdik. Kela ortimizdan termulib qoldi. Shunda opa bu mavhum so'zlashuv boisini tushuntirdi. Bolaning onasi qamoqda ekan. Bir kun oldin onasi bilan telefonida gaplashibdi. Hozir esa bola, sezganingizdek, yana gaplashtirishni o'rtanib so'radim...

Yo'lak bo'ylab ketarkanmiz, mashhur rassom Ro'zi Choriyev ijodiga bag'ishlangan burchakka duch keldik. Rassom ham ayni shu Mehribonlik uyida tarbiya topgani uchun ehtirom va faxr ramzi sifatida tasviriy san'at burchagi tashkil qilindan. Bu yerda muassasa tarbiyalanuvchisi bo'lgan qizlar jam bo'lib turgandi. Ular ham birin-ketin Dilbar onaning mehridan bahramand bo'lishga intildi. Shunda kichkinagina, shaddod qizaloq opani savolga tutdi:

— Ona, anavi odam sehrgarmi?

Kimni aytyapti ekan, deb hayratlangancha yon-vertinga qaradim. Qizaloq (ismi Tatyana) Ro'zi Choriyevning suratiga ishora qildi. Kulib yubordim.

— Nimaga bu odamni sehrgar deb o'ylayapsiz?

Uning o'miga yonida turgan jajji dugonasi javob qildi:

— Bu odam bu yoqda tursak ham, u yoqda tursak ham bizga bir xil qaray oladi-da...

Bola tasavvuri hayratlanarli. Lekin aslini olganda ham Ro'zi Choriyev tasviriy san'at sehrgari edi-da!

Mehribonlik uyidan qaytarkanman, har bir bolaning nigohini eslab qoldim. Ular allaqanday ma'yus, o'ychan, lekin juda yorug'! Taqdir bu tufalarga yo'qotqilari o'rmini bosa oladigan tufalarni atab qo'yganiga juda ishongim keladi!

Sirojiddin IBROHIM

Leonardo da Vinchining qog'ozda qolgan kashfiyotlari

Mana, besh asrdiki, olimlar insoniyat tarixidagi eng mukammal san'at asari — "Mona Liza" portreti sirini ochishga urinadi. Ayrimlar suratda tasvirlangan ayolning ko'zlarida matematik raqamlar, sirlar harflarni payqasa, boshqalar rasm ichida yana bir qancha rasmlar borligini ilg'aydi. Ammo hali hech kim buyuk italyan rassomi Leonardo da Vinchining sevimli "Jakonda"si tabassumi ortiga yashiringan chinakam jumboqni anglab yetolmadi.

Da Vinchi nomini tarixga abadiy muhrlash uchun u chizgan "Mona Liza" portretining o'zi yetarli bo'ldi. Shu surat orqali besh asr avlodlarining bari Leonardo da Vinchini mohir va tengsiz mo'qalam sohibi sifatida taniydi. Ammo bu ijodkor nafaqat Uyg'onish davrining buyuk rassomi, balki iste'dodli muhandis, haykaltarosh, me'mor, matematik, anatom, xitirochi, shoir va musiqachi sifatida ham jahon madaniyati, san'ati va ilm-fanida yorqin iz qoldirdi.

Leonardo di ser Pero da Vinchi 1452-yilning 15-aprelida Italiyaning Vinchi shahri yaqinidagi Ankiano qishlog'ida tug'ildi. Yaxshi oiladan chiqqan otasi notarius bo'lib ishlar, oddiy dehqon oilasida o'sgan onasi esa uy bekasi edi. Da Vinchi 1 yoshga to'lar-to'lmas otanasining munosabatlariga darz ketdi. Sal o'tmay, otasi boshqa bir boy va mashhur ayolga uylandi. Leonardo 3 yoshga to'lganida uni qonunon vasiyiliga olib, o'zi bilan olib ketdi. Bo'lajak rassom aqlini taniy boshlagach, oilasini birlashtirishga ko'p marta urinsa-da, barcha harakatlari besamar ketdi.

Leonardo 14 yoshga to'lganida otasi uni Toskaniyadagi eng mohir rassom va haykaltarosh Andrea del Verrokkoning ustaxonasiga shogirdlikka berdi. Bolakay bu yerda rassomlik va haykaltaroshlik san'atidan tashqari ijtimoiy va texnik fanlarni ham qunt bilan o'rgandi. Ustaxonada olgan bilimlari unga hayoti davomida ko'p bor asqotdi.

Bolaligidan yondaftariga uylar, ko'chalar, qir-adirlar, bog'-rog'lar, gullar, uy hayvonlarini har bir detaligacha sinchkovlik bilan tasvirlab boradigan Da Vinchi tez orada nafaqat tengqurlari, hatto ustozidan ham o'tadigan mohir rassomga aylandi. Shunga qaramay, u sira mehnatdan qochmas, ko'proq o'rganish uchun buyirilgan eng mayda ishlarni ham og'rinmay bajarardi. Atrofidagilarga, keyinchalik o'z shogirdlariga ham doim "Baxt — qunt bilan ko'p mehnat qilgan kishiga keladi", der edi.

Leonardo 20 yoshga to'lib, rassom sifatida odamlar tiliga tushganida ham ustozlari Verrokko bilan ishlashni davom ettirdi. U ustozlari chizgan katta rasmlarning mayda detallari, nususan, peyzaj foni, ikkinchi darajali qahramonlarning kiyimlari ustida ishlardi. Mustaqil rassom sifatidagi birinchi ishini esa 1476-yildagina yaratdi.

Da Vinchining har bir asari uning tinimsiz izlanish va kuzatuvlari mahsuli. U ayniqsa, insonning yuz ifodasini tasvirlashda katta yutuqlarga erishdi. Uning "Madonna Benua" (1478), "Qoyadagi Madonna" (1483—1494), "Angyari jangi" (1503—1506) va 15 yil davomida chizgan hamda sira qo'lidan qo'yagan "Mona Liza" asarlarida asosiy e'tiborini

qahramonlarning chehrasini jonlantirish va ularning ichki dunyosini nozik chizgilar orqali aks ettirishga qaratdi.

1482-yili Leonardo o'sha davrdagi san'at va madaniyat homiysi Lorenzo Medichi bilan Milanga jo'nab ketdi. Bu yerda u rassomlikdan ko'ra, ko'proq muhandislik va haykaltaroshlik bilan shug'ullandi. Gersog Lyudovik Sfortsi uni o'z saroyiga muhandis etib tayinladi va g'aroyib tomosha maydoni qurib berish vazifasini topshirdi. Undan so'ng loydan Franchesko Sfortsi o'tirgan haykalini yasadi. U doim fan yordamida kishilarning mehnatini yengillashtirish yo'llarini izlardi va bu borada ko'p ishlarni amalga oshirdi. Uning loyihasi asosida Milan shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan kanal, odamlarning uzog'ini yaqin qiladigan ko'priklar qurildi. Leonardo chindan arxitektura sohasida yaxshigina qobiliyatga ega bo'lib, uning o'z davrida nihoyatda aniqlik va mahorat bilan yaratgan ishlari hatto zamonaviy ustalarini ham hayratga soladi.

1499-yili Florensiyaga qaytganida ham Leonardoga muhandislik qobiliyati va tajribasi asqotdi. Buyuk rassom sayohatlari davomida Franchesko Melts ismi yigitini shogirdlikka oldi. Bu yigit da Vinchi rassomlik uslubining asosiy merosxo'ri bo'lib, ustozining yozmalari asosida tuzgan "Rangtasvir haqida risola"si Yevropa amaliyoti va nazariyasiga ta'sir ko'rsatgan muhim manba sanaladi.

Leonardo qanchalik mashhur rassom bo'lmasin, u o'zini birinchi galda olim va muhandis deb bilardi. Uning olamni anglashga bo'lgan intilishi o'z davridan ancha ilgari ketishiga sabab bo'ldi. U xuddi beqiyos asarlari kabi turli kashfiyotlar loyihasini mukammal tarzda yaratdi. Da Vinchidan meros qolgan 7 ming varaqli yondaftar ko'plab ixtirolarning chizma va loyihalari to'la. Ammo doim shaxsiy hayotini sir tutishga uringan va matematikani juda yaxshi bilgan Leonardo kundaligini yozishda shifrlardan foydalanilgan. Shu bois, uning ayrim chizmalari hozirgacha tadqiqotchilar uchun sirligicha qolmoqda.

Shunga qaramay, da Vinchining daftarida tank, uchish apparati, projektor, katapult, velosiped, parashut va boshqa ko'plab ixtirolar prototipi mavjud. Olim turli qurilmalarning loyihalari yaratgan, ammo faqat birgina kashfiyoti u hayotlik chog'ida tan olingan. Bu to'pponcha uchun chaqmoq zatvor bo'lib, u avvaliga tor doirada, keyinchalik zodagonlar, ayniqsa, suvoriylar orasida ommalashdi. Ixtiro shu darajada mukammal yaratilgan ediki, undan hatto XIX asrda ham foydalanilgan.

Da Vinchi yashagan davrdan yarim asr o'tib, uning loyihalari, chizmalari asosida olim tasavvur qilgan va insoniyatga katta foydasi tegadigan ixtirolar yaratila

boshlandi. Bugun biz kundalik hayotimizda foydalanadigan aksariyat qurilmalar g'oyasi mashhur rassom Leonardo da Vinchiga tegishli ekanini ko'pchilik bilmaydi.

Avtomobilning "bobosi"

Da Vinchining mashhur suratlaridan birida avtomobilning qadimgi ishlanmalari aks etgan. U o'zi harakatlanadigan arava bo'lib, murakkab arbalet mexanizmi yordamida oldinga siljishi kerak bo'lgan. Leonardoning g'oyasiga ko'ra, arava uch g'ildirakli bo'lib, orqa g'ildiraklarni harakatga keltirish uchun unga qo'lda boshqariladigan dasta o'rnatiladi. Rul biriktirilgach, prujina quvvati bilan old g'ildiraklar ham harakatlanib boshlaydi. Dastlab mazkur transport vositasi qirollik oilasining vaqtichog'ligi uchun mo'ljallangan. Keyinroq da Vinchi uzatma rulli va to'rt g'ildirakli arava ixtiro qildi. Uning yurishi uchun birgina dastani burish kifoya bo'lib, bunday transportda endi odamlarni tashish mumkin edi. Aynan mana shu ixtironing prototipi asosida keyinchalik biz biladigan avtomobillar yaratildi.

G'avvoslar kiyimining birinchi ko'rinishi


G'avvoslar kiyimi, suv tagida suzish uchun nafas olish apparati, qutqaruvchi aylana va last (suvda suzish uchun oyoqqa kiyiladigan moslama) — bularning bari Leonardo da Vinchining ixtirolari edi. U suv o'tmaydigan teridan tayyorlanuvchi g'avvoslik kiyimi loyihasini yaratgan. Olimning loyihasi g'avvos nafas olishi uchun egiluvchan naycha bilan ta'minlangandi. Og'izga solinadigan teshikkhali naycha qamishdan tayyorlanib, nafas olish qopchasiga biriktirilishi kerak edi. Qopcha ichidagi havo taxminan 30 daqiqaga yetishi ko'zda tutilgan.

Leonardoning "tank"i

Ishonish qiyin, ammo tarixdagi eng katta harbiy mashina — tankni ham da Vinchi loyihalashtirgan. Xitirochi o'z chizmalarida zirhli mashinaning hamma tomonini to'plar bilan jihozlagan. Tank harakatini qurilmalarning kuzatuv minorasiga joylashgan asar boshqaradi. Mashinani harakatga keltirish yaxshigina kuch talab etadi. Buning ustiga, bir vaqtning o'zida uni ham to'plar bilan o'qlash, ham otish kerak bo'ladi! Keyinchalik tank loyihasi takomillashtirildi va da Vinchi yaratgan zirhlangan vagon konsepsiyasidan ilk bor Birinchi jahon urushida foydalanildi.

Shamda yoritiladigan projektor

Birinchi projektorni ham da Vinchi ixtiro qilgan. Olim quti yasab, ichiga yonuvchi sham joylashtirdi. Qutining bir chetiga katta shisha linza o'rnatadi. Uning mana shu oddiygina qurilmasi yordamida katta binoni yetarlicha yoritish mumkin edi. Da Vinchi projektorni avvaliga teatr ehtiyoji uchun yaratgandi. Biroq keyinchalik undan turli sohalarda keng foydalanila boshlandi.



"Tashxislovchi" ko'zgular xonasi

Ma'lumki, o'rta asrlarda insonlarning hali ko'p kasalliklar haqida bilmasligi yoki shifokorga juda kech murojaat qilishi tufayli turli xastalıklardan vafot etish holati ancha yuqori bo'lgan. Bunga qarshi chora sifatida Da Vinchi ko'zgular xonasini loyihalashtirdi. Bu xonaning devorlari katta ko'zgul sakkiz burchakli "shkaf"lardan iborat bo'lib, unga kirgan kishi o'zining minglab akslarini ko'radi. Kishi o'ziga barcha tomondan qarash orqali tanasidagi yara, jarohat, shish belgilarini aniqlashi mumkin bo'ladi. Da Vinchi kasalliklarni aniqlash maqsadida o'ylab topgan ko'zgular xonasidan bugunga kelib, ko'ngilochar xona sifatida foydalanilmoqda.

Ekskavatorni ham-a!?

Ishchilar mehnatini yengillashtirish maqsadida o'ylab topilgan ekskavator g'oyasi ham da Vinchiga tegishli. Ushbu qurilma qazib olingan materialni tepaga ko'tarish va tashish vazifasini bajaradi. Olimlarning taxminicha, ekskavatorlar Arno daryosini ajratish loyihasi uchun kerak bo'lgan. O'shanda kengligi 18, uzunligi 6 metr xandaq qazish kerak edi. Da Vinchining chizmalaridan ko'rish mumkinki, u yaratgan qurilmaning kran o'qlari 180 darajaga aylana olgan va kanalning butun kengligini egallagan.

Bir so'z bilan aytganda, buyuk musavvir Leonardo da Vinchi insoniyatga o'z qaydnomalarda suvosti kemasi, vertolyot, atmosfera namligini o'lchashga mo'ljallangan gigrometr, delpatlan uchish apparati, qutqaruvchambaragi va boshqa ko'plab ixtirolar loyihasini qoldirdi.

1516-yili Leonardo fransuz qirolining taklifi bilan Klo-Lyuse qasriga keldi va unga rasman qirolning birinchi raqamli rassomi, muhandisi va me'mori lavozimi berildi. U bu yerda yaxshigina maosh evaziga katta loyihalarga boshchilik qildi. Umrining so'nggi uch yilini Klo-Lyuse qasrida o'tkazgan rassom 1519-yilning 2-may sanasida shu yerda vafot etdi.

Leonardo da Vinchi asosiy vaqtini me'morchilikka bag'ishlagani bois, chizgan rasmlari u qadar ko'p emas. Ularning orasida tugallanmagan kartinalar ham bor. Biroq u o'zining ozgina ishlari bilan ham rangtasvir san'atini yuqori cho'qqiga olib chiqqan edi.

Da Vinchi umri davomida qimmatli vaqtini nazariy bahslar, tortishuvlarda ishtirok etishga sarflamadi, siyosiy hayotda faollik ko'rsatmadi, shunchaki ijod qildi va chinakam shoh asarlar yaratdi. U loyihalashtirgan mukammal ixtirolar esa o'sha davrlarda tan olinmagan va hayotga tatbiq etilmagan bo'lsa-da, vaqti kelib, ular fan-texnika rivojiga mislsiz hissa qo'shib, bugun insonlar hayotini yengillashtirayotganining o'ziyoq fidoyi olimning mehnatlari besamar ketmaganini tasdiqlaydi.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Qo'ysinov Odil Almurotovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha «Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari» mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: moqt@markaz.uz

Maxkamova Madina Ulfatjonovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha «Texnika oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish» mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: moqt@markaz.uz

Abdullayev Dilmurod Sharifovichning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha «Surunkali yurak yetishmovchiligiga chalingan bemorlarda tarqalgan parodontiti kompleks davolashni takomillashtirish» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Mirzayeva Yelena Innokentiyevnaning 02.00.14 — Organik moddalar texnologiyasi va ular asosidagi materiallar ixtisosligi bo'yicha «Uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonlari uchun katalizatorlar ishlab chiqarishda ikkilamchi alyuminiy oksidi adsorbentini qo'llash texnologiyasini takomillashtirish» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32-uy.
Tel/faks: (71) 244-79-20, e-mail: tkti_info@edu.uz

Eshqurbonov Furqat Bozorovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha «Yangi samarali kompleks hosil qiluvchi ionitlar sintezi, ularning nodir va noyob metallar sorbsiyasida qo'llanilishi» mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 17-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.
Tel/faks: (71) 244-79-20, 262-79-17; e-mail: tkti@mail.uz

Xoldorov Bahodir Baratovichning 02.00.17 — Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari ixtisosligi bo'yicha «Kungaboqar (Heliantus annuus.L) savati va uzum siqmasidan pektin olish texnologiyasini takomillashtirish» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.
Tel/faks: (71) 244-79-20, 262-79-17; e-mail: tkti@mail.uz

Matyakubov Baxtiyar Shamuratovichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha «Sug'orma dehqonchilikda suv resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari (Xorazm vohasi misolida)» mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y, O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel/faks: (95) 142-22-36; (78)150-61-37;
e-mail: piim@agro.uz

Allambergenov Xamza Kamalovichning 10.00.08 — Folklorshunoslik ixtisosligi bo'yicha «Qadimgi turkiy adabiyotda g'ayritabiiy timsollar taraqqiyoti» mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2018.Fil.46.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz torko'chasi, 5-uy.
Tel/faks: (71) 233-36-50; 233-71-44; e-mail: uzlit@uzsci.net

Fayzullayev Rustam Xamrayevichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha «Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini modul-reyting ta'lim asosida takomillashtirish» mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 14-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-90-38, 246-90-39; e-mail: moqt@markaz.uz

Jo'rayev Abdunazar Xatamnazarovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ispan tili) ixtisosligi bo'yicha «Ispan tilida talabalar kommunikativ malakalarini takomillashtirish» mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G 9-"A" mavzesi, 27-uy. Tel/faks: (71) 230-12-91

Qarshiyev Odash Abdugaffarovichning 04.00.07 — Neft va gaz konlari geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish ixtisosligi bo'yicha «Buxoro-Xiva hududi janubi-sharqiy qismidagi uglevodorod resurslari bazasining shakllanishida karbonat va tuz-angidrit formatsiyalari struktura planlarining ta'siri» mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti, O'zbekiston neft-gaz sanoati ilmiy-tadqiqot va loyihalash instituti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti va I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.GM/T.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Shota Rustavelli ko'chasi, 114-uy.
Tel/faks: (71) 250-92-15; e-mail: igimigm@ing.uz

Kamalova Elvira Abdusattarovnaning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha «Yuklarni tashishning logistik boshqaruvini takomillashtirish» mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 16-may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Nasimov Baxtiyor Vasiyevichning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha «Korxonalar faoliyatini boshqarishda zamonaviy menejment uslublaridan foydalanish samaradorligi» mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 16-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72; e-mail: tsue.uz

Mamadjonova Nafisaxon Abdimannobovnaning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha «Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida yangi g'o'za navlarini yetishtirishning suv va resurstejovchi agrotexnologiyalarni ishlab chiqish» mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y. PSUYAITI. Tel.: (95) 142-22-36; faks:(78) 150-61-37;
e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Jurnalni varaqlaganda

"Shum bola" dan Fellinigacha

Tarix qog'ozlarda qolar ekan. Hodisalar yuz beradi, jarayonlar davom etadi, yillar o'tib moziyning qaysidir nuqtasida sodir bo'lgan voqea haqida ma'lumot olish kerak bo'lganda, qog'ozlar tilga kiradi.

Zamonaviy odamlarning nazarida internet va televideniyeing oldida matbuot axborot olishning ibtidoiy usulidek tuyulsa, ajabmas. Biror soha tarixini tadqiq etmoqchi bo'lsangiz, u haqidagi kitoblarni varaqlaysiz. Gazeta va jurnal taxamlariga murojaat qilasiz. Shu paytgacha o'zbek kinosining o'tmishi, buguni va ertasidan so'zlovchi nashr yo'q edi. Bu bo'shliqni to'ldirish vazifasi yaqindagina birinchi soni bosmadan chiqqan "Kino san'ati" jurnali chekiga tushadigan bo'lib turibdi.

"O'zbekkino" Milliy agentligi muassisligida chop etila boshlangan yangi jurnal kino olamining barcha jabhalarini qamrab olishga urinishi bilan e'tiborni tortadi. Bu dastlab ruqlarda ko'rinadi. Rasmiy xabarlardan boshlangan maqolalar karvoni tahlilga ulanadi. "Mavzu" ruknida

kinoshunos Shuhrat Rizayev bilan suhbatda kino siyosati, milliy kinematografiyaning bugungi ahvoli, sohada yetishmayotgan kadrlar masalasi, tarixiy filmlar ishlash zaruriyati va mashaqqati, yoshlar ijodi, kinoni badiiy idrok etish haqida mutaxassis qarashlari batafsil bayon qilinadi. Olimning san'at haqidagi fikrlari e'tiboringizni tortadi: "Jurnalist ta'lim-tarbiya jarayoni tafsilotidan nariga o'tmaydi, tarixchi uchun voqeaning joyi bilan vaqti muhim, iqtisodchi esa sarflanayotgan pulning hisob-kitobini qiladi. Faqat san'atgina YURAKni ko'rsatadi..."

"Shum bola"ni kulib ko'ramiz, yig'lab eslaymiz" nomli maqolada film ijodkorlari va aktyorlarning xotiralarini bayon qilinadi. Film rejissori Damir Salimov va operator Timur Qayumov filmni yaratish hamda suratga olish mashaqqatlari haqida so'zlaydi. Elimizning sevimli "shum bola"sini ekranda gavdalantirgan Abdurayim Abdurahobov eshakni bog'izlash sahnasida rostakamiga kaltaklangani-yu, boshidagi tuxumni qanday chaqishgani kabi lav-

halarning suratga olinishi haqidagi hangomalar bilan o'rtoqlashadi.

"Yo'l boshida" sahifasida Jahongir Qosimov ish jarayonidayoq shov-shuvlarga sabab bo'layotgan Is'hoqxon Ibrat hayoti haqidagi tarixiy filmni suratga olish jarayoni xususida so'zlab beradi. Iqbol Qo'shshayevaning "Sukunat saroyida suron" maqolasida kinematografiya ustularidan biri Ingmar Bergmanning qarashlari orqali katta kino bilan yuzma-yuz kelasiz. Jurnalning keyingi sahifalarida Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan artist Farhod Mahmudov "ochig'ini aytadi": "O'zbek kinosiga kerakman". Suhbat davomida "Maysaraning ishi", "Baron" kabi filmlar va "Brigada" seriali orqali rus va o'zbek tomoshabinlari olqishini olgan san'atkor bilan yaqindan tanishasiz.

"Ko'rgim keladi" sahifasida media mahsulotni saralash masalasi ko'tarilgan. Kino san'at darajasidan tirikchilik manbayiga aylanib borayotgan, odamlarni hayot shiddati yutib yuborayotgan bir paytda yaxshi filmni saralay olish mushkul ish. Sahifaning ilk mehmoni, rejissor Sobir



Nazarmuhammedov tasniflagan durdonalar ham o'quvchi uchun ajoyib tuhfadir. Akira Kurosava, Federico Fellini, Andrey Tarkovskiy kabi nomlarni eshitganda kimdir hayajonini yashirolmaydi, biroq ularga ilk bor duch kelgan muxlislar ham topilishi shubhasiz.

Jurnalning so'nggi sahifalarida milliy mediasanoatning yangilanayotgan sohalariga haqida "Pillapoya" ruknii hikoya qiladi. 3D formatli animatsion filmlar turkumining ilk nishonasi bo'lmish "Matizvoyning sarguzashtlari" multfilmi, balki sizga ham qiziqdir...

Suhrab ZIYO

Kutubxona

Topqirlikka undaydi

Taniqli ijodkor Ochil Tohirning yaqinda nashr etilgan "Sanay turib adashma" nomli kitobi matematikaga qiziquvchi bolajonlar uchun ajoyib tuhfa bo'ldi. To'plamda raqamlarning, matematik amallarning, bir-biridan ajoyib va qiziqarli topishmoqlarning misralarda ifoda etilishi yosh kitobxonni o'ziga jalb etmay qo'ymaydi. Shuningdek, kitob dizayni, suratlarning bolalarga mos tarzda tanlangani ham alohida e'tiborga molik.

Kitobni varaqlay turib raqamlar "Qani, kim o'zini chiroyli tanishtiradi?!", degan musobaqa uyushtirishganmikan deb o'ylab qolasiz. Masalan, yetti (7) raqami o'zini shunday tanishtiradi:

**Sirli raqamdir "yetti" (7),
Yoshing yettiga yetdi.**

**Chorlab turar, bo'lgoh,
Maktab atalgan dargoh.**

Shuningdek, arifmetik to'rt amalning hayotimizda uchraydigan

buyumlarga qiyoslanishi kitob-xonda qiziqish uyg'otadi. Masalan, "Qo'shuv (+)" haqidagi she'rga e'tibor bering:

**Deylik qo'shuvga (+) misol,
Bo'lar xoch shakli timsol.
Kichik sonmi yo yirik,
Kifoyadir bir xillik.**

Kitobdan shunday sodda va ravon she'rlar qatori bolalarni topqirlikka undovchi bir-biridan qiziqarli topishmoqlar ham o'rin



olgan. Masalan, shoir "Vergul" so'zini quyidagicha boshqotirma tarzida ta'riflaydi:

**Olmasang yarim nafas,
Yo'ldan o'tgani qo'ymas.**

Bir so'z bilan aytganda, mazkur to'plam bolajonlarning xotirasiga oson o'rinishi va aniq fanlarga qiziqishini yanada oshiradi.

**Azim AXTAMOV,
O'ZJOKU talabasi**

Foydali lug'at

Rus tilini o'rgatish borasida olib borilgan tadqiqotlar orasida pedagogika fanlari doktori, professor R.Tolipovning "Русско-узбекский словарь многоприставочных глаголов" nomli salmoqli lug'ati e'tiboringizni tortdi.

Muallifning ma'lumotiga ko'ra, rus tilida old qo'shimchali 7000 ta fe'l mavjud bo'lib, ularning 25 tagacha varianti bor, har bir variantning ham bir necha turi mavjud va ular turli ma'noga ega. Rus tilida ayrim so'zlar bir xil yoziladi, lekin urg'uga ko'ra ma'nosi o'zgarishi bilan farqlanadi: *засыпать* — uyquga ketmoq, *засыпать* — sepib qo'ymoq. Shuningdek, *говорить* — сказывать, *идти* — ходить kabi fe'llarda bir fe'lning ikki ko'rinishi ifodalangan. Ba'zi fe'llarning talaffuzi bir xil, yozilishi esa har xil: *преемник* — *прёмник*. Bularning barchasi rus tilidagi birdan ortiq old qo'shimcha bilan qo'llanuvchi so'zlarning ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atini tuzish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xusufatda rus tilining turkiy tillarda mavjud bo'lmagan grammatik xususiyatlari aks ettirilgan va old qo'shimchali fe'llarning o'zbek tilidagi izohi berilgan. Lug'at rus tilini o'rganuvchilarni qiynaydigan, ikkilantiradigan, adashtiradigan, o'zbek tilida bo'lmagan jihatlariga: "vid" kategoriyasi va u bilan bog'liq old qo'shimchali fe'llarga hamda urg'uning beqarorligiga e'tibor qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Lug'at ikki qismdan iborat: birinchi qismda har bir fe'lning old qo'shimchali 5—25 tagacha, ikkinchi qismda esa 2—4 tagacha varianti alifbo tartibida joylashtirilgan. Lug'atda urg'u olgan unililar birinchi marta noodatiy — bosh harflar bilan berilgan. Chunki bu usul so'zning o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalinishini va esda qolishini ta'minlaydi. Lug'atda ayrim fe'llar eng ko'p qo'llanadigan frazeologik birliklar tarkibiga kiritilgan va o'zbekcha tarjimasi bilan berilgan.

Lug'at o'quvchilarga va rus tilini mustaqil o'rganuvchilar keng ommasiga mo'ljallangan.

**D.XUDOYBERGANOVA,
Z.MIRAHMEDOVA,
filologiya fanlari nomzodlari**



Baxt saltanatiga sayohat

Inson hamisha go'zallikka, baxtga intiladi. Baxtiyor damlarni kutib, o'ziga to'kis baxtni sog'inib yashaydi. Baxt degani bir qushga o'xshasa kerak: qattiqroq ushlasang ham, biroz bo'sh qo'ysang ham undan ayrilib qolishing mumkin. Shu bois uni har kim o'zicha tushunadi, o'zicha tasavvur etadi, o'zicha anglaydi.

Xudoybergan Shomurodovning "Baxt saltanatiga sayohat" asarini o'qib, u bilan "baxt saltanatiga sayohat" qildim. Kitob o'zgacha ruhda, o'zgacha uslubda yozilgan ertak va hikoyalardan iborat. Asami o'qir ekansiz, beixtiyor nekbin tuyg'ular qalbingizda jo'sh uradi. Hikoyalarda insoniyatga, jumladan, o'zbek xalqiga xos fazilatlar: poklik, halollik, samimiyat, sadoqat, odob-axloq, mehnatsevarlik kabi tuyg'ular ulug'langan.

Hikoyalar ravon o'qiladi. Yozuvchi butun boshli

roman mazmunini hikoyalarga mehnat bilan singdira olgan. Birida mehr-muhabbat daryosidan simirsangiz, yana birida hayot qiyinchiliklariga sabrli bo'lishni o'rganasiz. Hikoyalarni o'qib ruh taskin topadi. Bir zum bo'lsa-da, baxtni his qilasiz. Sababi, har bir hikoya, qanday bo'lishidan qat'i nazar, yaxshilik bilan yakunlangan.

Bundan tashqari, kitobda "Qum ustiga qurilgan shahar", "Yettinchi xazina", "Mushuk va sichqon", "Quduqdagi suhbat" kabi ertaklar ham o'rin olgan.

**Laziza MUXTOROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi**



Salomatlik va do'stlik uchun

Shu yilning 4-5-may kunlari Oliy o'quv yurtlararo sport majmuasida O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sport vazirliklari, Kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi markaziy apparati xodimlari o'rtasida sport musobaqasi tashkil etildi.

Musobaqalarni O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi R.Bedilov hamda hamkor vazirlik va idoralar vakillari ochib berdi.

“Yurt taraqqiyoti yo'lida birlashaylik” shiori ostida o'tkazilgan bellashuvda erkaklar mini futbol va stol tennis, ayollar badminton bo'yicha mahoratini namoyish



etdi. Mini futbol bo'yicha bahslar qizg'in o'tdi. Yakuniy natijaga ko'ra, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi jamoasi birinchi, Madaniyat vazirligi jamoasi ikkinchi hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Stol tennis va badminton bo'yicha o'tkazilgan o'yinlarda ham g'oliblar aniqlandi. Bu borada Maktabgacha ta'lim vazirligi xodimlarining qo'li baland keldi. Vazirlikning uch nafar ishtirokchisi — V.Anorboyeva, N. Jumaniyazova hamda L.Berdiyeva badminton bo'yicha raqiblariga birorta o'rin qoldirmadi.

Erkaklar o'rtasida stol tennis bo'yicha yakka tartibda o'tkazilgan bellashuvda Maktabgacha ta'lim vazirligi mutaxassislari S.Omanov va G.Qurbonov 1-, 2-o'rinni

egallagan bo'lsa, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi boshqarma boshlig'i, musobaqaning eng yoshi ulug' ishtirokchisi B.Ismailov 3-o'ringa munosib ko'rildi.

Musobaqa yakunida barcha g'oliblarga, shuningdek, mini futbol bo'yicha eng yaxshi darvozabon va to'purar nominatsiyasi sohiblari, o'yinlarning adolatli va shaffof

o'tishini ta'minlagan O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, Badminton federatsiyasi, Stol tennis federatsiyasi hakamlariga O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Mini futbol turi bo'yicha musobaqa g'olibi — Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi jamoasiga tantanali ravishda ko'chma kubok topshirildi.

MUXBIRIMIZ



Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

Yosh tennischilarimiz Tojikistonda

6-11-may kunlari Tojikiston poytaxti Dushanbe shahri 18 va undan kichik yoshdagi tennischilar o'rtasida J5 turkumiga kiruvchi “Tajikistan Open” turniriga mezbonlik qiladi.

Qattiq qoplamali kortlarda o'tkaziladigan musobaqada O'zbekiston sharafini o'g'il bolalardan Aziz Dadaboyev, Maksim Shin, Berdiyev Mavlonov, Samandar Abdumalikov, Abdusamad Usmonov, Said Akbarov, Isfandiyoq Mahmudov va Lazizbek Qurbonov; qizlardan Sevil Yo'ldosheva, Setora Normurodova, Anjelina Folts, Mohinur Sharipova, Darya Kornilova va Farida Marimova himoya qilmoqda.

Birinchi davra bellashuvlarida yakka bahslarida o'g'il bolalar o'rtasida Aziz Dadaboyev rossiyalik Semyon Voronin 6-3, 6-1, Berdiyev Mavlonov eronlik Yunus Talavardan 7-6(3), 7-5, Said Akbarov esa Aminjon Abdulloyevdan 6-4, 6-3 hisobida ustun kelgan bo'lsa, Isfandiyoq Mahmudov rossiyalik Vyacheslav Ovchinnikovga 6-2,

2-6, 3-6 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ydi.

Qizlarimizdan Setora Normurodova rossiyalik Yuliya Trifunovani 6-0, 6-3 hisobida, Farida Marimova yana bir Rossiya vakilasi Valeriya Monkoni 6-3, 6-2 hisobi bilan mag'lubiyatga uchratdi. Ammo Dariya Kornilova — Alina Xvatova bahsi 2-6, 2-6 hisobi bilan Rossiya vakilasining foydasiga hal bo'ldi.

Juftlik bahslarida erkaklar o'rtasidagi bellashuvda Said Akbarov/Berdiyev Mavlonov juftligi tojikistonlik Issamjon Sharifov va Yunus Talavar juftligini 3 set natijasiga ko'ra 6-7 (4), 7-6 (3), 10-8 hisobida mag'lub etgan bo'lsa, qizlarimizdan Farida Marimova/Angelina Folts juftligi rossiyalik Kristina va Sofiya Mixiylovalarga hech qanday imkoniyat qoldirmadi: 6-1, 6-3. Shuningdek, yana bir hamyurtimiz Milena Nesterova rossiyalik Yuliya Orlova bilan juftlikda Tojikiston vakillari Umiya Aliyeva va Diana Ivanixina juftligini 6-2, 6-0 hisobida mag'lub etdi.

Bahodir FIRDAVSIY o'g'li

Turkiyaga boradigan shaxmatchilar saralanmoqda

Shu yilning 28-oktyabr — 6-noyabr kunlari Turkiyada shaxmat bo'yicha 16 va undan kichik yoshdagi shaxmatchilar o'rtasida butunjahon shaxmat olimpiadasi o'tkaziladi. O'zbekiston shaxmat federatsiyasi ushbu nufuzli musobaqada ishtirok etuvchi sportchilar nomini e'lon qildi.

Xabarda keltirilishicha, federatsiya murabbiylar kengashi va ijroiya qo'mitasi 3 nafar sportchini saralab olgan: Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Umida Omonova. Shuningdek, terma jamoa safida Turkiyaga yo'l oluvchi yana 2 ta vakant yo'llanma uchun 4-11-may kunlari qo'shimcha saralash bosqichi o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ayni paytda bu saralash bosqichida Mehridin Yo'ldoshev, Davron Sharipov, Muhiddin Madaminov, Samandar Shermuhammedov, Ali Qosimov va Olmos Rahmatullayev bahs olib borishmoqda.

Turnir jadvali natijalariga ko'ra, 4-turdan so'ngi Ali Qosimov 3 ochko bilan yetakchilik qilayotgan bo'lsa, undan yarim ochko kam jam'argan Samandar Shermuhammedov ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Saralash bosqichining navbatdagi turlari 9- va 11-may kunlari bo'ladi.

B.HASANOV

Reklama

“KO'CHMAS MULK MENEJMENT KONSALTING” MChJ mulkning boshlang'ich bahosi oshib borishi tartibida o'tkaziladigan ochiq auksion savdolariga taklif etadi

2019-yil 10-iyun kuni soat 11:00 da Buxoro shahri, Kogon shossesi, 34-uyda o'tkaziladigan ochiq auksion savdolariga “Agrokimyohimoya” AJ Romitan tuman filialining 2019-yil 7-maydagi 0108/69-sonli buyurtma xatiga asosan “Agrokimyohimoya” AJ Romitan tuman filiali hisobidagi Romitan tuman “Sho'rcha” QFY, “Qoqishtuvon” SHFY hududida joylashgan umumiy yer maydoni 1394,7 kv.metr, qurilish osti maydoni 435,6 kv.metrdan iborat 6-mineral o'g'itlar saqlash ombori qo'yilmoqda.

Boshlang'ich bahosi — 22 000 000 (yigirma ikki million) so'm Talabgorlar diqqatiga!

Auksion savdolarida ishtirok etish uchun buyurtmanomalar «Savdo tashkilotchisi» tomonidan rasmiy ish kunlari soat 10:00 dan 16:00 ga qadar qabul qilinadi. (13:00 dan 14:00 gacha tushlik, shanba va yakshanba dam olish kuni).

Auksion savdosida qoligiga 10 kun muddatda oldi-sotdi shartnomasini tuzish majburiyati yuklatiladi.

Auksion savdolarida ishtirok etish istagidagi talabgorlardan savdolarida ishtirok etish uchun belgilangan shakldagi buyurtmanomalar auksion tashkilotchisining Buxoro shahri, Kogon shossesi, 34-uy manzili bo'yicha auksion xabarnomasi e'lon qilingan kundan boshlab qabul qilinadi. Buyurtmanomalarini qabul qilish 2019-yil 7-iyun kuni soat 18:00 da to'xtatiladi.

Auksion savdolarida ishtirok etish istagida bo'lgan talabgorlardan mulkning boshlang'ich bahosining 15 foizi miqdoridagi zakalat pullarini to'lashlari hamda jismoniy shaxslardan pasport nusxasi, yuridik shaxslardan davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma, nizom nusxasi, vakil ishtirok etganda ishonchnoma taqdim etilishi so'raladi.

Mazkur mulk 2019-yil 10-iyun kuni o'tkaziladigan ochiq auksion savdosida sotilgan taqdirda takroriy auksion savdolari 2019-yil 18- va 25-iyun kuni soat 11:00 da o'tkazilishini oldindan ma'lum qilamiz.

Takroriy savdo uchun buyurtmanomalarini qabul qilish 2019-yil 18-iyun kuni soat 18:00 da to'xtatiladi. Auksion savdolariga qatnashish uchun talabgorlar savdo tashkilotchisi bilan tuziladigan zakalat kelishuviga asosan mulk boshlang'ich bahosining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorida zakalat pulini savdo kuniga qadar “Ko'chmas Mulk Menejment Konsalting” mas'uliyati cheklangan jamiyatining AKB “Kapital bank” Buxoro filialidagi quyidagi hisob raqamiga to'lashlari shart: 20208000100396752001, MFO: 01082, INN: 303068015, XXTUT: 83200.

Buyurtmanomalar qabul qilish, qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish va savdo o'tkaziladigan manzil: Buxoro shahri, Kogon shossesi, 34-uy.

Telefon raqami: (94) 548-70-20; e-mail: kmmk.realtor@gmail.com, veb sayt: www.kmmk.uz

Litsenziya RR 0213

Sog'lom o'quvchi — aqli o'quvchi

Jismonan chiniqqan bolaning aqliy salomatligi ham me'yorida bo'ladi. Sport o'g'il-qizlarni intiluvchan, chaqqon va dadil, qat'iyatli va irodali bo'lishga undaydi.



Toshkent tumanidagi 8-umumta'lim maktabida o'tkazilgan "Sog'lom o'quvchi — aqli o'quvchi" musobaqasida o'quvchilarning ana shu xislatlari namoyon bo'ldi. Maktabda arqon tortish, stol tennis, basketbol to'pini savatga tashlash, masofaga yugurish, kurash, shaxmat, shashka, rassomlik va kross mashqlari bo'yicha bellashuvlar o'tkazildi.

— Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusning ikkinchisi yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ham



bejiz emas, — deydi maktabning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Nurilla Mahkamov. — Maktabimizda faoliyat yuritayotgan "Yosh tennischilar", "Shaxmat va shashka", "Kurash" to'garaklari ko'plab o'quvchilarni qamrab olgan.

Hududdagi "Iqbol" mahallasi yoshlari ham guruhlariga bo'linib, futbol musobaqasi uyushtirishdi. Bunda Begmatovlar jamoasi 1-, "Do'stlik" jamoasi 2-o'ringa munosib topildi. Musobaqa yakunida barcha yo'nalishdagi g'oliblarga esdalik sovg'alari va faxriy yorliq topshirildi.

Sh.BOYMURODOVA
Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

Bolalar sporti

Kichkintoylar ligasi

Yunusobod tumanidagi 74-maktabgacha ta'lim muassasasida MTM tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Kichkintoylar ligasi" sport musobaqasining tuman bosqichi o'tkazildi.

Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi hamda Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmasining "Toshkent shahridagi maktabgacha ta'lim



muassasalari tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Kichkintoylar ligasi" sport musobaqasini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma buyrug'i asosida o'tkazilgan musobaqada ishtirokchilar 5 shart asosida bellashdi.

— Yosh avlodni sportga keng jalb etish va sog'lom turmush tarzini yanada mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan estafetada bolajonlarning epcilligi, chaqqonligi va jamoa bo'lib harakatlanish mahorati sinovdan o'tkazildi, — deydi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi sho'ba mudiri D.Usmonova. — Dastlabki shartda ishtirokchilar basketbol to'pini to'siqlar orasidan yerga urgan holda olib o'tgan bo'lsa, keyingi shartda to'pni oyoqlari




orasiga qistirib, belgilangan joygacha sakrab bordi. "Doira ichida to'p", "Jamoasardoriga to'pni uzatish", "Penalti" shartlarida ham bolajonlar astoydil g'oliblikka intildi.

Yakunda 154-MTMning "Oftobcha" jamoasi 1-o'rinni egallab, musobaqaning shahar bosqichiga yo'llanma oldi.

2-o'rinni 554-MTMning "Paxtaoy" jamoasi egallagan bo'lsa, 3-o'rinni 288- va 460-MTM tarbiyalanuvchilari band etdi. Barcha ishtirokchilarga faxriy yorliq va esdalik sovg'alari berildi.

Dilshod RO'ZIQULOV,
"Ma'rifat" muxbiri
Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-3383. Tiraji 15720. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonaga — (71) 233-50-55;
kotiбиyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Tosheva, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Abror Umarqulov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonaning manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 22.15 Topshirildi — 23.45

1 2 3 4 5 6